



ISLOHOT

TARAQQIYOT TAYANCHI

Bugungi kunda jahonda sun'iy intellekt (SI) ko'plab sohalarda asosiy tayanch vositaga – boshqaruvda samaradorlikni oshirish, resurslardan tejab foydalanish, xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini berayotgan real voqeikka aylanmoqda. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda tizimli islohotlar amalga oshirilib, sun'iy intellektni joriy etish bo'yicha muhim natijalarga erishilmoqda. Davlatimiz rahbarining yaqinda SI texnologiyalarini vazirlik va idoralar faoliyatiga hamda boshqa sohalarga keng tatbiq etishga qaratilgan loyihalar bilan tanishuvi ushbu yo'nalishning strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, sun'iy intellekt g'oyasi XX asr o'rtalarida paydo bo'lganini ko'ramiz. 1956-yilda AQSHning Dartmut kollejida bo'lib o'tgan konferensiya SI tarixida muhim voqea bo'lgan. U yerda olimlar guruhi “sun'iy intellekt” atamasini taklif etib, shu yo'nalishda tadqiqotlar boshlashga qaror qilgan. Dastlabki yillarda SI sohasida katta yutuqlarga erishildi: kompyuterlar shaxmat o'ynashni, oddiy masalalarni yechish va hatto, oddiy matnlarni tarjima qilishni o'rgandi.

Ammo, 1970–80-yillarda SI sohasida “qishki uyqu” davri boshlandi. Dastlabki muvaffaqiyatlarga qaramay, kompyuter imkoniyatlari cheklangan edi. Olimlar kutgan natijalarga erishilmadi, Slga qiziqish susaydi va sohani moliyalashtirish qisqardi. Sohadagi ikkinchi “uyg'onish” 1990-yillarda



boshlandi. Kompyuterlarning quvvati oshdi, algoritmlar takomillashdi va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyati paydo bo'ldi. Bundan tashqari, internetning rivojlanishi SI uchun yangi imkoniyatlar ochilishiga sabab bo'ldi.

Ochig'ini aytganda, bugun dunyoda sun'iy intellektidan foydalanish borasida keskin kurash bormoqda. So'nggi o'n yillikda jahon investitsiyalarining sun'iy intellekt sohasiga yo'naltirilgan hajmi

2014-yildagi 8 milliarddan 2024-yilda 110 milliard dollargacha o'sdi. 2023-yilda Xitoy davlatining kvant texnologiyalariga ajratgan global investitsiyalari 15,3 milliard dollarga yetdi. 2024-yilda Xitoyning beshta kompaniyasi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarga investitsiyalar hajmi bo'yicha dunyoning eng yirik 50 kompaniyasi ro'yxatiga kirdi.

BRIKS va ASEANga a'zo qator davlatlar qo'shma tadqiqotlar, ishlanmalar va o'zaro

aloqa standartlari orqali o'z mustaqil innovatsion infratuzilmasini mustahkamladi, ilmiy-texnologik boshqaruvning ochiq xalqaro tizimini yaratib, ko'p qutblilik asosida global taraqqiyotga hissa qo'shdi. So'nggi 20 yil ichida BRIKS davlatlari olimlari tomonidan hammualliflikda yozilgan maqolalar soni o'sishda davom etmoqda va hozirda yiliga 15 mingdan ortiq maqolani tashkil etib, ular jahon ilmiy va texnologik innovatsiyalari sohasida yangi harakatlantiruvchi kuchga aylanmoqda. Shu bilan birga, G'arb davlatlarida texnologik raqobat kuchayib bormoqda. Bir so'z bilan aytganda, bugun qaysi soha bo'lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo'lishi tobora oydinlashmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Toshkent shahridagi IT-parkka tashrifi O'zbekistonning mazkur sohada aniq maqsadlarga ega ekanini ko'rsatadi. Xususan, davlat boshqaruviga tatbiq etish orqali vazirlik va idoralarda qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish, shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish ko'zda tutilgan. SI ko'magida iqtisodiyot, sanoat, qishloq xo'jaligi, moliya va boshqa sohalarda samaradorlikni oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish ko'zda tutilgan. Slni ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va boshqa xizmat sohalariga joriy etib, aholiga qulayliklar yaratish va hayot sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

(Davomi 2-sahifada).

O'ZBEK TILIM – O'Z TILIM

MILLATNING YURAGI



Ayni kunlarda butun xalqimiz, taqdir taqozosi bilan boshqa o'lkalarda qo'nim topgan millionlab millatdoshlarimiz uchun tom ma'noda quvonchli ayyom – O'zbek tili bayrami shukuhli kezib yuribdi.

Til masalasi millat uchun doimo kun tartibida turadi. Bir paytlar bu mavzu shunchaki til uchida muhokama qilinib, so'ng bir chetga surib qo'yilardi. Faqat keyingi yillardagina til qadri millat va vatan qadri qadar yuksaldi. Chunonchi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Yangi O'zbekistonda davlat tilining nufuzini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, samarasini bera boshladi.

Bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida joriy yilning 20-oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'ri-sida”gi qarori imzolandi.

(Davomi 2-sahifada).

KONFERENSIYA

NAVOIYDA NAFIS MAJLIS



Prezidentimizning 2025-yil 7-fevraldagi “Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosini yurtimiz va jahon miqyosida keng targ'ib qilish hamda Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili”ni yuqori darajada o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga asosan Navoiy shahrida kuni kecha “Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosining umumbashariyat ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni” mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etildi.

(Davomi 4-sahifada).

NUQTAYI NAZAR

TARIX – IBRAT MAKTABI

Taniqli muarrix va adib, Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimi Muhammad Yahyoxon XO'QANDIY bilan suhbat

Musulmon dunyosida sharif shaharlar yettita bo'lib, ulardan biri Buxoro ekani bizga cheksiz faxr va g'urur bag'ishlaydi. Dunyoda latif sifati qo'shib aytiladigan shahar esa bitta – Xo'qandi latif, ya'ni bugungi Qo'qondir. Garchi “Boburnoma”da: “Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahar kamrakdur”, deya baho berilgan esa-da, bu kent ko'proq “zamin sayqali” sifatida shuhrat topgan.

Bobur Mirzo zamonida Qo'qon turli jang-jadallardan keyin o'r-chin – shaharcha darajasiga tushib

qolgandi. Hududning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va adabiy taraqqiyoti “Oltin beshik” avlodlari hukmronlik qilgan Qo'qon xonligi davriga to'g'ri keladi. Ushbu davrga oid har qanday yangi fakt milliy tariximiz uchun izziz g'oyib bo'lgan Xudoyorxon taxtining topilishiday muhimdir. Bu esa tadqiqotchilardan ulkan hafsala va fidoyilik talab qiladi. Yirik olim Muhammad Rotib Nablusiy “Ilmga boringni bermaguningcha, ilm senga hech narsa bermaydi”, deya ta'kidlaydi.



(Davomi 3-sahifada).

FAKT

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayenning taklifiga binoan 23-24-oktyabr kunlari rasmiy tashrif bilan Bryussel shahrida bo'ladi.

Jahondagi eng mashhur ilmiy-ommabop kitoblardan 27 tasi “Yoshlar uchun ming kitob” (1000 KITOB) loyihasi doirasida o'zbek tiliga o'g'irilib, kutubxonalarga tarqatildi.

2025-yil yanvar–sentyabr oylarida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 59,8 mlrd AQSH dollariga yetdi.

“National Geographic” jurnali ijodkorlari tomonidan tanlab olingan 2026-yilning eng yaxshi sayohat yo'nalishlari o'ntaligidan Xiva shahri joy oldi.

MUNOZARA

“CHO'ZMA LAG'MON”

yoxud milliy seriallar mazmuniga yana bir nazar

Bundan o'n-o'n besh yil avval, xorijiy mamlakatlarda o'zlari uchun emas, asosan xorijda namoyish etishga mo'ljallangan uzundan uzoq, adog'i yo'qday tuyuladigan teleseriallarni ko'rganimizda, qani endi, bizda ham shunday seriallar ishlansa, miriqib tomosha qilsak, deb niyat qilgandik. Buni kutib o'tirmay, serial deganlari dunyoning to'rt tarafidan biz tomonga sunamiday yopirilib kela boshladi.

Avvaliga asira Izauraning ayanchli hayotini ko'zlarimizga yosh olib tomosha qildik, unga

achindik. Keyin “Boylar ham yig'laydi” xonadonlarimizda mehmon bo'ldi. “O'ddiy Mariya”dagi Mariya Lopesning dovdir o'g'li Xose Ignasioga ich-ichimizdan achindik.

Keyinroq kunchiqar mamlakatlarda ishlangan turkum seriallar namoyishi boshlanib ketdi. Farzandlarimiz sarkarda Jumong jasoratidan, uy bekalari maftunkor Oshin mahorati-yu namunali odob-axloqidan ta'sirlandi. Matbuotda o'zimizning kino ijodkorlarga da'vat takliflari aytili. Ne baxtki, ko'p o'tmay bizda ham milliy seriallar yaratish boshlandi. Xorijnikchalik bo'lmasa-da, bir-ikki marta tomosha

qilsa bo'ladigan ko'p qismli filmlar suratga olindi, binoyidek serialchilar paydo bo'ldi. “O'zingniki o'zingga – oy ko'rinar ko'zingga”, deb xursand bo'ldik.

Ammo xursandchiligimiz uzoqqa bormadi. Xorijiy seriallarning yangi to'liqini televideniye ekranlariga ofatday qayta yopirildi. Avval ko'rganlarimiz holiya ekan, buni-siga uncha-muncha odamning asabi dosh berolmaydi. Befarosat Fazilatxonimning xurmacha qiliqlaridan endi qutulganimizda, chala dumbul Guneshxonimga duch keldik.

(Davomi 6-sahifada).



Boshlanishi 1-sahifada.

Tarixiy hujjat mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalanish, ta'lim tashkilotlarida o'zbek tilini o'qitish tizimini takomillashtirish, uning sofligini saqlash va muntazam boyitib borish, zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini kengaytirish, yurtimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar vakillari hamda xorijdagi vatandoshlarimizning davlat tilini o'rganishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasidagi huquqiy asoslar mustahkamlash yo'lda muhim qadam bo'ldi.

Qur'oni Karimda "Alloh insonni yaratdi, unga bayonni o'rgatdi", deb marhamat qilinadi. Ya'ni, Yaratgan insonga dastlab nutqni, so'zlashni o'rgatgan. Adabiy tilimiz asoschisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham "Insonni so'z ayladi judo hayvondin", deya so'zning mo'tabarligini e'tirof etadi. Jadid harakatining atqoli namoyandasi Abdulla Avloniy ta'бири bilan aytganda, har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinayi hayoti – uning ona tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmoq – millat ruhini yo'qotmoq bilan barbardir.

Bugun jahonda geosiyosiy jarayonlar shiddat bilan o'zgarayotgan, har bir xalq o'zligini saqlab qolishi uchun qizg'in kurash ketayotgan vaziyatda ona tili tengsiz qurol va qalqon sifatida maydonga chiqmoqda.

Mustamlaka, tobelik va mutelikdan xalos bo'lish orzusidagi elatlar mustaqillik sari qadam, avvalo, ona tilini e'zozlashdan boshlanishini anglab yetmoqdalar. Ayniqsa, bizning xalqimiz bu haqiqatni o'zining ozodlik yo'lidagi mashaqqatli kurashlari misolida boshdan kechirganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Istibdod davrlarida millat ruhini milliy til vositasida ko'tarishga bo'lgan urinishlar shafqatsizlarcha bostirildi. Xalqni uyg'otmoqchi bo'lgan ma'rifatparvar insonlar "millatchi" tamg'asi bilan qatag'on qilindi. Ona tilimizda bitilgan minglab durdona asarlar yo'qildi, til ravnaqiga xizmat qiluvchi dargohlarga o't qo'yildi. Bular bosqinchilik va mustamlakachilik siyosatining sinalgan usuli edi. Chunki ona tilidan faxrlanib, uni qadrlay boshlagan millatni uzoq vaqt tutqinlikda ushlab turish mumkin emas edi.

O'tgan asrning 80-yillari oxirlarida xalqimiz milliy istiqol sari muhim qadam tashladi. Ya'ni, mamlakatimizda o'zbek tilining nufuzini oshirish, unga davlat tili maqomini berish bo'yicha harakatlar boshlandi. 1989-yilning 21-oktyabrda "Davlat tili haqida" qonun qabul qilindi. Keyinchalik O'zbekiston Konstitutsiyasida

o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi qat'iy belgilab qo'yildi. Davlat tilining sofligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Atamashunoslik qo'mitasi tashkil etildi. 1993-yilda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonun qabul qilindi.

1995-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Davlat tili haqida"gi Qonunda uning tatbiq etilishini nazorat qilish biron-bir maxsus tuzilma zimmasiga yuklatilmagani, 2003-yildan boshlab Atamashunoslik qo'mitasi faoliyatining tugatilgani davlat tili rivojiga bo'lgan e'tiborning bir muddat susayishiga olib kelgani ham haqiqat.

Barcha sohalarida bo'lgani kabi taraqqiyotimizning yangi bosqichida ona tilimizga e'tibor kuchaydi, tilimiz yana e'zoz va qadr topa boshladi. Jumladan, O'zbekiston Prezidentining 2019-yilning 21-oktyabrda imzolangan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilingan kun – 21-oktyabr O'zbek tili bayrami kuni deb e'lon qilindi.

Yana bir muhim jihat, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa yuksak xalqaro minbarlarda o'zbek tilida nutq so'zlamogda. Xalqimizning bashariyat oilasidagi munosib o'rnini namoyon etayotgan bunday muhim voqelik milliy g'ururimizni osmon qadar yuksaltiryapti.

Shu o'rinda qayd etish joizki, ona tilimizning ildizlari tasavvurimizga ham sig'maydigan olis tarixga borib taqaladi. Bu fikrga isbot so'raydiganlar bundan o'nlab asrlar ilgari bitilgan qadim O'rxun-Enasoy yodgorliklari-yu, "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'atit turk" singari yozma obidalarga qarasin. Beruniy, Xorazmiy, Farg'oni, Mirzo Ulug'bek kabi o'nlab buyuk siymolarni eslasin. Ahmad Yassaviyning hikmatlari, Sohlabqiron Amir Temurning "Tuzuklar"ini yodga olsin. "Muhokamat ul-lug'atayn", "Boburnoma" singari o'lmas asarlarning teran mohiyatiga nazar tashlasin.

Eng muhimi, bu til sohibi bo'lgan buyuk millatimiz bugun aynan o'z ona tilida yangrayotgan da'vatlarga munosib tarzda uyg'onmoqda. Davlatimiz rahbari ta'бири bilan aytganda, biz Yangi O'zbekistonda, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda,

hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz.

Ona tilimizning betakror bilimdoni va jonkuyari, ardoqli shoirimiz, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov: "Ona tili umummillat mulkidir, demak, til oldidagi mas'uliyat ham umummilliydir", deya bejiz ta'kidlamagan. Ona tilimizni shu tabarruk tuproqda yashayotgan, o'zbekman deya faxrlanadigan har bir shaxs qadrlamog'i, hurmat qilmog'i lozim.

Bugun respublikamiz prokuratura organlari ham davlat tili oldidagi mas'uliyatni chuqur his etgan holda ish olib bormoqda. Ayni paytda, tizimda joriy qilingan yangi tartibga ko'ra, prokurorlar qaysi qonun ijrosini tekshirishidan qat'i nazar, avvalo, bu muassasada davlat tili to'g'risidagi qonunchilikka rioya qilish holatini majburiy ravishda o'rganadilar, shundan so'ng asosiy masalaga o'tadilar. Bu qoida Bosh prokuratura reglamentida ham alohida mustahkamlab qo'yilgan.

Birgina joriy yilda prokuratura organlari tomonidan davlat tili haqidagi qonun hujjatlari talablarini buzish bilan bog'liq 4 mingdan ziyod holat aniqlandi. Ularning asosiy qismi ish yuritishda o'zbek tilining imlo qoidalariga rioya qilmaslik, ichki hujjatlarni qabul qilishda davlat tili talablarini buzish, tashqi reklamalar va axborot matnlarida til me'yorlaridan chetga chiqish bilan bog'liq. Bunday tekshirishlar natijasida davlat idoralarga 200 ga yaqin taqdimnoma kiritildi, qonun talabini buzgan 100 dan ortiq shaxs intizomiy javobgarlikka tortildi, joylarda mingga yaqin targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

Lekin, kezi kelganda shuni ham aytish kerakki, ona tilimizni asrash va nufuzini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan bu choralar hali yetarli emas. Zotan, kundalik hayotimizda davlat tili to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzish, tilga hurmatsizlik holatlari hamon kuzatilmoqda. Albatta, tilga oid qonunbuzilishlarga nisbatan tegishli huquqiy baho berib borish bizning kundalik vazifamizdir. Bu boradagi faoliyatimiz kuchayib borishiga shubha yo'q. Biroq, til qoidalarining buzilishiga, ya'ni millat sifatida borligimiz va boqiyilgimizga rxna solayotgan holatlarga ko'pchiligimiz ko'nikib qolayotganimiz afsuslanarli.

Ayniqsa, millionlab kuzatuvchisi, o'quvchisi, tomoshabini bo'lgan internetdagi, ommaviy axborot vositalaridagi poyintar-soyintar chiqishlarga jamoatchilikning keskin munosabatini shakllantira olmayapmiz.

Go'yoki bunday chiqishlarni xuddi shunday bo'lishi kerakdek qabul qilyapmiz. Ona tilimizda savodsizlarcha, tilga va elga, bebaho ma'naviy merosimizga hurmatsizlarcha kuylanayotgan qo'shiqlarning "ajabtovur" matnlarini-ku, izohlamasak ham bo'ladi. Yoshlarimiz esa, ona tilimizning qudrati va jozibasini buyuk allomalarimiz ijodining durdona namunalari misolida emas, ko'proq ana shu saviyasiz "asar"lar timsolida tasavvur qilmoqda. Bizningcha, bu ona tilimiz bilan bog'liq va tobora chuqurlashib borayotgan eng katta muammolardandir.

Bu muammolarga yechim bormi? Albatta, bor. Buning uchun barchamiz o'zgarishni o'zimizdan boshlashimiz kerak. Xususan, huquq-tartibot organlari faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo, har bir prokuratura xodimi, ayniqsa, yosh mutaxassislar davlat tilida to'g'ri va xatosiz yozish uchun o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish, so'z boyligini kengaytirish, nutq madaniyatini rivojlantirish borasida doimiy izlanishi shart.

Ikkinchidan, huquqni muhofaza qilish Akademiyasida xodimlarni davlat tili qoidalariga o'rgatishga qaratilgan masofaviy o'quv kurslari tashkil qilinadi. Ushbu kurslarda hujjatlarni davlat tilida to'g'ri rasmiylashtirish, qolaversa, notiqlik san'atini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Uchinchidan, prokuror nazorati hujjatlarini tayyorlashda o'zbek tili qoidalariga qat'iy rioya etishimiz lozim. Prokuror yozgan hujjat, sodda qilib aytganda, boshqa davlat organlari xodimlari uchun namuna vazifasini o'tashi kerak.

To'rtinchidan, davlat tiliga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati ta'sirchanligini yanada oshirish talab qilinadi. Bunga mas'ul bo'lgan tarkibiy tarmoqlar til to'g'risidagi qonunchilik ijrosi ahvolini doimiy o'rganib, aniqlangan muammolar to'g'risida hukumatga muntazam taklif va axborotlar kiritib borishi zarur. Bu orqali prokurorlarimizning davlat tiliga hurmati va Vatanga sadoqatiga ham baho berib borish mumkin.

Davlat tili bilan bog'liq masalalar yechimi doimiy e'tiborni talab qiladi. Yuqorida qayd etilganidek, biz avvalo tizimimizning o'zida davlat tilining nufuzini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqdami. Bu borada, prokuratura organlari xodimlari o'rtasida har yili o'tkazib kelinayotgan til bo'yicha tanlovlarning ahamiyati katta bo'lmoqda.



Nig'matilla YO'LDOSHEV,
O'zbekiston Respublikasi
Bosh prokurori

Bu yil ham "Til yashasa – millat yashaydi!" mavzusida o'tkazilgan tanlov qizg'in kurashlar, do'stona va samimiy raqobat muhitida kechdi. Tizimimizning 500 nafardan ziyod xodimi qatnashgan tanloving quyi bosqichlarida 60 nafarga yaqin xodim g'olib deb topildi va respublika bosqichiga yo'llanma oldi. Tanlov yakunlariga ko'ra, 12 nafar hamkasbimiz g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi.

Eng muhimi, mazkur tanlov xodimlarimizning ma'naviyati, ona tilimiz, o'zbek va jahon adabiyoti haqidagi bilimlari yuqori ekanini namoyish etdi. Ular ona tilimizning cheksiz imkoniyatlarini chuqur anglashlarini kuzatib mamnun bo'ldik. O'zbek tilida bitilgan mumtoz va zamonaviy asarlardagi g'oyalar, badiiy vositalar ahamiyati hamda mohiyatini soha mutaxassislarga xos tarzda tahlil qilib berishdi. Ko'plab xodimlarimiz o'z ijod namunalarini ham hakamlar hay'atiga taqdim qilishdi. Bu jihatlar xodimlarimizning dunyoqarashi va tafakkuri kengayib, el-yurtga sadoqati, farzandlik mas'uliyati oshayotganini namoyon etdi.

Muhtaram Prezidentimiz haqli ravishda ta'kidlaganidek, o'zbek tilining beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning jahon miqyosida nufuzi va jozibadorligini oshirish uchun hali oldimizda ko'plab vazifalar turibdi. Avvalo, yuksak taraqqiy etgan demokratik davrlarda bo'lgani kabi davlat tili butun jamiyatni, tili va millatidan qat'i nazar, barcha fuqarolarni yagona xalq sifatida birlashtirishga xizmat qilishi zarur. Bu borada ortiqcha ehtiros va hissiyotlarga berilmasdan, vazminlik bilan ish tutish lozim.

Ma'rifatparvar shoir Cho'lpon yozadiki, ona tili – millatning yuragidir, yurak urishdan to'xtasa, hayot ham to'xtaydi. Zero, davlat tili faqatgina soha mutaxassislarning emas, balki ko'pmillatli butun xalqimizning birgalikdagi sa'y-harakatlari, aql-zakovati, ma'naviy-ma'rifiy salohiyati, vatanparvarlik fazilatlarini bilan ravnaq topadi. Milliy til ravnaq topsa, pirovardida, mustaqilgimiz ham abadiy, milliy taraqqiyotimiz ham barqaror va bardavom bo'ladi.

Boshlanishi 1-sahifada.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda SI sohasida tizimli islohotlar amalga oshirildi: qonunchilik bazasi yaratildi. Soha rivojiga oid qonun va qarorlar qabul qilindi. Kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirildi.

Oliy o'quv yurtlarida SI bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Xorijiy ekspertlar jalb qilinib, xalqaro tajriba o'rganilmoqda. Infratuzilma rivojlantirilmoqda. Davlat xizmatlari, bank-moliya, jamoat xavfsizligi, transport kabi yo'nalishlarda 30 dan ortiq pilot loyihalar ishga tushirilgan. O'tgan yili sun'iy intellekti 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Raqamli texnologiyalar vazirligida mazkur soha bilan ishlaydigan alohida markaz tashkil etildi.

Mamlakatimizda zamonaviy ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari qurilmoqda va internet tarmog'i kengaytirilmoqda. Raqamli hukumat platformasi orqali davlat organlari o'rtasida ma'lumotlarning inson omilisiz almashinuvi yo'lga qo'yildi. Startaplarga o'zining dasturiy mahsulotini Raqamli hukumat platformasiga integratsiya qilib, undagi ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat berildi. Qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirishga erishildi. Sog'liqni saqlash sohasida tashxis qo'yish sifati yaxshilanmoqda. Startap-ekotizim yaratilmoqda. Yosh tadbirkorlarni SI sohasidagi loyihalarini amalga oshirishga jalb etish va qo'llab-quvvatlash maqsadida startap-akseleratorlar va biznes-inkubatorlar tashkil etilmoqda.

Bir yil ichida sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro indeksda 17 pog'ona yuqorilab, Markaziy Osiyoda 1-o'ringa ko'tarilgani O'zbekistonning yutuqlari jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotganidan dalolat. Yosh va bilimli kadrlarning ko'pligi, hukumat tomonidan



Slni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, infratuzilma tinimsiz rivojlanib borayotgani mamlakatimizning SI sohasida mintaqaviy yetakchiga aylanishiga imkon berdi.

Albatta, erishilgan natijalar bilan cheklanib qolinsa, raqobatda ortda qolib ketish mumkin. Bu yo'lda izlanishlarni izchil davom ettirish – davr talabidir. Shu bois, davlatimiz rahbari IT-parkka tashrifi chog'ida sohani yanada rivojlantirish borasida dolzarb takliflarni

ilgari surdi.

Birinchidan, endilikda vazirlar va tarmoq rahbarlarining raqamlashtirishga mas'ul o'rinbosarlari bir vaqtning o'zida sohada sun'iy intellekti rivojlantirishga ham javobgar bo'ladi. Shahar va tumanlarda ham hokimlarning raqamlashtirish va sun'iy intellekt bo'yicha maslahatchisi lavozimi kiritiladi. Barcha vazirlik va hokimliklarga o'z tuzilmasida sun'iy intellekti rivojlantirish bilan shug'ullanadigan alohida bo'linma

TARAQQIYOT TAYANCHI

tashkil qilish va ularning oldiga avvalo ish samaradorligi va xizmat sifatini oshirish, ortiqcha xarajat, "yashirin" iqtisodiyot va byurokratiyani qisqartirish kabi masalalarga yechim topish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab berish topshirildi.

Ikkinchidan, yuqori ko'rsatkichga erishgan, xorijiy tillarni biladigan, texnologik bilimi kuchli 100 nafar mutaxassis AQSH, Yevropa, Singapur, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarga olti oylik o'quv kurslariga yuboriladi.

Uchinchidan, kelgusi yildan vazirlik va hududlarda sun'iy intellekti joriy etish holatini baholaydigan reyting tizimi ishga tushiriladi.

To'rtinchidan, dunyoda sun'iy intellektga talab tobora ortib borayotgan bir paytda, raqobatdosh bo'lish uchun 3 ta eng asosiy masala – infratuzilma, ochiq ma'lumotlar va kadrlar tayyorlashga e'tibor yanada kuchaytiriladi. Bu yo'lda o'tgan 8 yilda 300 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalari qurildi, aholi punktlarining 99 foizi mobil aloqa bilan qamrab olindi.

Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash uchun 7 ta data-markaz ishga tushirildi.

Beshinchidan, keyingi yili sog'liqni saqlash, energetika, bank-moliya, bo'xona-soliq, transport, tog'-kon va qishloq xo'jaligi sohalarida sun'iy intellekt bo'yicha 100 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Sun'iy intellekt infratuzilmasiga 100 million dollardan ko'p sarmoya kiritgan investorlarga elektr energiyasi narxi 5 sent etib belgilanadi.

Qolaversa, tarmoq va hududlarda sun'iy intellekt infratuzilmasiga oshib borayotgan talabni qoplash uchun

davlat-xususiy sherikligi yo'lga qo'yiladi.

Oltinchidan, yil yakuniga qadar vazirlik va idoralardagi 55 ta, kelasi yili qolgan barcha ma'lumotlar bazalarini Elektron hukumat yagona data-markaziga o'tkazish topshirildi. Bundan buyon vazirlik va idoralar ma'lumotlarni o'z serverlarida saqlashiga yo'l qo'yilmaydi.

Yettinchidan, sun'iy intellekti rivojlantirish faqat zamonaviy infratuzilma va algoritmlarga emas, balki malakali kadrlarga ham bog'liq.

"Bu sohaning asosi – matematika va informatika. Shu bois, kadrlar tayyorlashni eng avvalo maktabdan boshlash kerak", dedi Prezidentimiz. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, keyingi o'quv yilidan "Informatika" fani o'quv dasturlariga sun'iy intellektga oid mavzular kiritiladi. Buning uchun Massachusetts texnologiyalar instituti bilan hamkorlikda maxsus darslik ishlab chiqiladi.

"Bir million dasturchi" loyihasining mantiqiy davomi sifatida "Bir million sun'iy intellekt yetakchisi" loyihasi ham boshlandi. Loyiha asosida bu yil 100 ming, kelasi yili kamida 500 ming yoshlar o'qitiladi.

Bunda eng faol 500 nafar yoshlar – noutbuk, 100 nafar o'qituvchi – ming dollardan mukofot, ikkita ta'lim tashkiloti elektromobil bilan taqdirlanadi.

Bu sa'y-harakatlar ortida ulkan maqsadlar bor. O'zbekiston 2030-yilga borib, sun'iy intellekt bo'yicha "TOP-50" ta davlat qatoriga kirishni maqsad qilgan. Shu bois, ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqib, "Sun'iy intellekt aliyansi" tashkil qilinadi. Ushbu aliysan tarkibiga sohada samarali faoliyat yuritayotgan yetakchi kompaniyalar, xorijiy ekspertlar,

yirik davlat korxonalari, banklar va oliygohlar kiritiladi. Aliysanning asosiy vazifalari yetakchi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari va akseleratorlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, o'zimizdagi dasturlar bo'yicha media-kontent yaratib, xalqaro PR kampaniyalarni tashkil etish, mahalliy korxonalar va mutaxassislarning xalqaro ko'rgazma, forum va konferensiyalardagi ishtirokini tashkil etishdan iborat bo'ladi.

Sakkizinchidan, o'zbek tilidagi adabiyotlar, ma'lumotlar, maqolalar, hisobotlar, ilmiy ishlarning aksariyati raqamlashmagan, elektron shaklga o'tkazilganlari ham har xil manbalarda saqlanmoqda. Vazirlar Mahkamasi barcha vazirlik va idoralar ma'lumotlarini elektron formatga o'tkazish grafisini tasdiqlash, Raqamli texnologiyalar vazirligiga sun'iy intellekt milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizni o'zida ifodalay olishi uchun "O'zbek tili korpusi"ni yaratish vazifasi yuklatildi.

Sun'iy intellekt – kelajak texnologiyasi. Biz Uchinchi Renessansga erishishdek ezgu maqsadni o'z oldimizga qo'ygan ekanmiz, sun'iy intellekt bobida ham hech kimdan ortda qolmasligimiz lozim. Renessans – ilmiy uyg'onish, ma'rifatni anglash va shu asnoda, asrlarga teng yillarni lahzalarga bosib o'tmoq demakdir. Buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumining ilhomboxsh hikmati bor: "Go'zal kunlar kelishini kutma, unga qarab borishni unutm". O'zbekistondagi yangi Uyg'onish ma'rifati ayni shu tamoyilga asoslanganini anglash barchamizga g'ayrat va shijoat bag'ishlaydi.



TARIX – IBRAT MAKTABI



Boshlanishi 1-sahifada.

Ne baxtki, yurtimizda ana shunday ilimga jon-u jahonini bag'ishlab, o'tmish ummonining tubidan bebaho marjonlar terayotgan olimlar bisyor. Ulardan biri Muhammad Yahyoxon Xo'qandiy (Yahyoxon Dadaboyev) haqida siz ham eshitgansiz. Qariyb yarim asrlik ilmiy izlanishlar natijasida tarixchining "Oltun beshik", "Xo'qandi latif manoqibi", "Xo'qandi latif hunarmandchiligi", "Xo'qandi latif me'morchiligi" kabi o'ndan ortiq kitoblari, 50 ga yaqin monografiya hamda 700 dan ortiq maqolalari chop etilgan.

Ma'rifatparvar domla bilan Qo'qon shahridagi Xudoyorxon o'rdasining davlatxona qismida suhbat uyushtirdik.

– Assalomu alaykum! Domla, har xil kitob ko'p. Lekin akademik darajadagi nashrlar juda kam. Siz qo'l urgan xonliklar mavzusidagi tarixiy-badiiy kitoblarning qiymati shundaki, xalqimizga o'tmishi-mizning qorong'i tomonlarini yoritib beradi, savol belgisi ostidagi masalalarga oydinlik kiritadi. Yana nozik jihati ham bor: tojdorlar yo'l qo'ygan xato va nuqsonlar, monarxiya tabiatiga xos zulm va adolatsizlik, xurofotga doya bo'lgan mutassiblik va yana ko'plab davr illatlarini bor bo'yi bilan xolisona raqam etish ijodkordan juda katta matonat, mahorat va insof ham talab qiladi.

Bu borada amalga oshirgan ishlaringiz mevasi – "Oltun beshik" va "Xo'qandi latif manoqibi" kitoblarini ham tarixiy, ham ilmiy, ham adabiy nuqtayi nazardan muhim manba deb aytishimiz mumkin. Bu kitoblarni yozish fikri qachon paydo bo'lgan?

– Bu fikr 1977-yilda Qo'qon shahar o'lka-shunoslik muzeyiga ishga kirganimda tug'ilgan. Bu yerdagi eksponat va hujjatlar bilan tanishgach, kelib-ketuvchilarning savollariga quloq tutib, tarixni tiklash bo'yicha qilina-digan ishlar hali ko'pligini angladim. Chunki tashrif buyuruvchilar xonlar o'zi qanday odam bo'lgani, davlatni qanday bosh-qargani, ular haqida sovetlar olib borgan tashviqotlar qanchalik haqiqatga yaqinligiga qiziqardi. Ammo bu savollarga javob topib bera olmasdim. O'zim Qo'qon xonlari yashagan joyda ishlasam-u, ular haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmam, uyat emasmi, degan xulosaga keldim. Shundan keyin imkon boricha ochiq va yopiq manbalarni, xalq orasidagi naqlarni o'rgana boshladim.

Mustaqillikning ilk yillarida "Vatan" gazetasida "Turkiston xonlari" nomida turkum maqolalarim e'lon qilindi. Ularda Minglar sulolasiga mansub barcha 19 nafar hukmdor haqida baholi qudrat ma'lumot berildi. Maqolalarni o'qigan yor-do'stlar ularni bir kitobga jamlashni maslahat berdi. Biroq kitob chiqarish uchun hali vaziyat yetilmagan, avvalo, u paytlar garchi mustaqillikka erishgan bo'lsak-da, xonlik haqida kitob chiqarish oson emasdi.

Shuningdek, maqolalar xomroq bo'lib, arxiv hujjatlari asosida qayta ishlash zarur edi. U davrlarda hali arxivlar tadqiqotchilar uchun to'liq ochilmagandi. Bundan tashqari, qo'shni davlatlarga ilmiy safarlar qilishga o'sha paytlardagi siyosiy vaziyat yo'l bermasdi.

So'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilm-fanga berilayotgan e'tibor, qo'shni davlatlar bilan do'stona siyosat natijasida boshlangan ishlarimni nihoyasiga yetkazish imkoniyati tug'ildi. 2018-yilda "Xo'qandi latif manoqibi", 2025-yilda "Oltun beshik" ("Xo'qand xonlari tazkiri") chop etildi.

– Yangi kitobingiz nomiyoq odamni o'ziga tortadi. "Oltin beshik", "oltin beshik avlodlari" kabi atalmalarga turli manbalarda ko'p bor duch kelganmiz. Qo'qon xonligi ibtidosini aynan unga bog'lashadi. Bu afsonami yoki haqiqat, ikkisinin o'rtasidagi chegaralar qayerda tutashadi-yu, qayerda ayro tushadi?

– Qo'qon xonligi tarixini o'rganish va yoritish ishlari xonlik davridayoq boshlangan. Hozirgi kungacha mavzuga aloqador to'rt yuzdan ziyod manba yaratilgan. Kimdir mavzuga xolisona yondashib, manbalar asosida haqqoniy yoritishga harakat qiladi, kimdir badiiy effekt ketidan quvib xayolot arxividan olingan "qiziqarli" faktlar qo'shadi. Kimdir tarixga faqat tanqidchi nazar bilan yondashsa, kimdir tarixning yomonini yashirib, yaxshisini oshirib yuboradi. Buni tabiiy hol deb bilaman. Har bir muallif o'z oldiga qo'ygan maqsadi, tanlagan janri talablaridan kelib chiqadi.

Bu asarlarning 99 foizi xonlik va xonlik hayotining turli jabhalariga bag'ishlangan. Xonlar tarjimaiyoli holiqa bag'ishlangan alohida asarlar juda kam. Mana shu bo'shliqni to'ldirish maqsadida asosan tarixiy manbalarga yondashib, mahalliy muarrixlardan tashqari Ovro'pa sayyohlari, rus olimlari Nalivkin, Bartold va boshqa o'nlab asarlarga murojaat qilindi.

"Oltun beshik" kitobi ikki qismga bo'lingan. Birinchi qismda "Oltun beshik" dostonining tiklangan, to'ldirilgan, to'liq holdagi matni, dostonning yaratilishi bilan bog'liq omillar, dostonga asos bo'lgan rivoyatning 12 xil talqini keltirilgan. Ikkinchi qismdan Xo'qand xonlari, taxtga o'tirish nasib etmagan xonzodalar, mashhur malikalar (oyimlar) haqida ma'lumot hamda ilovalar joy olgan.

"Oltun beshik" – xalq og'zaki ijodi namunasi. Biroq uni g'irt afsonaga chiqarib, inkor qilish ham to'g'ri bo'lmaydi. Rivoyatni afsonaviy unsurlardan tozalab qayta o'qisak, undan xalqimizning, yurtimizning tarixiy manbalarda yozilmagan sahifalarini topishimiz mumkin.



Holbuki, jahon miqyosidagi yirik arxeologik kashfiyotlarning bir qanchasi aynan afsona va asotirlar asosida amalga oshirilgan. Misol uchun, Genrix Shliman Troya shahri xarobalarini topishda "Iliada" va "Odiseya" dostonlariga tayangan bo'lsa, ispan va portugal bosqinchilari oltinga boy afsonaviy "Eldorado" o'lkasini izlab, Amerikaning Astek, Mayya makonlari, ibodatxonalari, ajabtovur inshootlari manzilini aniqlagan.

"Oltun beshik" rivoyati ham turli manbalar va xalq orasida sochilib ketgan edi. Qo'qon xonligi haqida qirqtacha kitob bo'lsa, ulardan 22 tasida shu rivoyat keltiriladi. Lekin bir-biridan farq qiladigan nuqtalari bor. O'sha farqlar menga qo'l keldi. Ular bir-birini to'ldirdi. Keyin kemptiklarni butlash uchun xalqqa murojaat qildik. Talabalik davrimda novqat (Tojikiston)-lik aholidan rivoyatning o'ziga xos talqinini eshitgandim, lekin to'liq emasdi. To'lig'ini kim biladi, desam, Qurama tog'i etaklaridagi elatlardan so'rang, deyishgan. Shu tariqa, Tojikiston, Qirg'izistondagi qurama, qipchoq, o'zbeklardan dostonning turli talqinlarini yozib ola boshladim.

– Domla, dalillarga ko'ra, Qo'qon ikki ming yillik tarixga ega. "Boburnoma" da ham ikki-uch joyda o'rchin – shaharcha tarzida tilga olinadi. Xonlik tarixi Bobur Mirzo-ga bog'lanishi esa, chamamda, saltanatni legitimlashtirish, ya'ni Qo'qon hukmdorlari "palagi" oliyshonlarga tutashadi, ular taxt-ga haqlidir, degan tasdiq uchun bo'lsa kerak.

– To'g'ri. O'sha davr qonuniyatiga ko'ra, o'zini davlatboshi deb e'lon qilishga faqat xos sulola vakili haqli bo'lgan. Shunga ko'ra, Sohobqiron Amir Temurdek zot ham umr bo'yi Amir rutbasida faoliyat yuritgan.

– Endi suhbatni kitobning ikkinchi qismi – Qo'qon xonlari mavzusiga bursak. Ular orasida hayoti va faoliyati eng bahsli, taqdiri eng ayanchli bo'lgani – Sayyid Muhammad Alixon. Xalq orasida Ma'dalixon degan nom bilan mashhur bo'lgan xon fojiasi qanday yuz bergan? Nahotki, ko'pchilikka ayon bo'lgan ma'lumotlar: xonning jaholatga botgani, o'ziga ona maqomidagi ayolga uylangani rost bo'lsa? Amir Umarxon va Nodirabegimday ziyoli, ijodkor, adolatpesha ota-onaning farzandi shunday qabihlikka qo'l ursa? Hukmdorlik davrining o'rtalariga kelib, Rossiya, Xitoy kabi imperiyalar bilan tengma-teng munosabatga kirishgan Ma'dalixon qanday qilib Amir Nasrulloqqa yengildi?

– Xonning asl ismi Muboriziddin Sayyid Muhammad Alixon bo'lib, taxtga o'tirgandan so'ng Abulmuzzaffar val Mansur Sayyid Muhammad Alixon g'oziy Bahodir binni Sayyid Muhammad Umarxon val-na'mi tarzida hujjatlarga bitilgan. Eng mashhur laqabi Ma'dalixon bo'lib, bu shunchaki qisqartma bo'lmay, "adl-u adolat manbayi" deganidir.

U bolalik chog'laridan diniy-dunyoviy ilmlarni, harbiy ish va saltanatdoriilik ilmini o'rgangan. Shuningdek, husnixat, kandakorlik, yog'och o'yimakorligi, qurolsozlik, zargarlik va boshqa amaliy san'at sirlarini ham egallagan. Hali yosh chog'ldanoq harbiy yurishlarda alohida bir dastaga bosh bo'lib, amaliyot o'tagan. Otasi

vafotidan keyin 17 yoshida Qo'qon taxtiga o'tirgan va 20 yil saltanat so'ragan. Uning davrida xonlikda tinchlik hukm surgan, yurt obod, el shod bo'lgan. Ma'dalixon chegaralarni mustahkamlagan, ichki nizolarga murosasiz zarba bergan. Mamlakat harbiy qudratini oshirish yo'lidagi tizimli islohotlar o'tkazgan. Tashqi siyosatda uzoqni o'ylab ish ko'rgan.

Ma'dalixon va Buxoro amiri Nasrulloxon to'qnashuvi tariximizning eng mudhish sahifalaridan biridir. Amir qachon bo'lsa-da, Xo'qand xonligini bosib olish orzusida yurar edi. Ma'dalixonning muvaffaqiyatlari unga tinchlik bermas, ammo mintaqadagi eng yirik davlatga dabburustdan hujum qilib bo'lmisligini ham

yaxshi anglardi. U zimdan urushga tayyorgarlik ko'ra boshlagan.

Ma'dalixon ham avliyo emas, talay nuqsonlari bor, deylik, arazchi, kekchi, beqaror va o'jar odam edi. Keyinchalik bularning yoniga maishatbozlik, kaltabinlik, qimorbozlik kabi illatlar ham qo'shilgan. Oqibatda onasi Mohlaroyimning nasihatlariga ham quloq tutmay qo'ygan. Ig'vogarlarning gapiga isho-nib, bir qancha davlat arboblari, iste'dodli sarkardalarni qatl ettirgan, surgun qilgan.

Xondan haq yoki nohaq jazo olgani uchun chekka-chekkada yurgan kuchlar asta-sekin birlasha boshlagan. Urush olovini yoqqan esa Ma'dalixonning sobiq tarbiyachilaridan, tarixchi Hakimxon To'ra edi. Bu kishining ajdodlari xonlikda yuksak izzat-ikromda bo'lib, Ma'dalixon o'ziga ma'lum sabablar bilan ularni hokimiyatdan chetlatgandi. Alamzada to'ra esa qulay fursat poylab yurardi. Nihoyat, 1840-yilda Ma'dalixon muxolifati Shahrisabzda unga qarshi faol harakat boshlaydi. Hakimxon To'ra Eshon Shofe'iydan fatvo olib, xonga qarshi bo'lib qolgan ukasi Sulton Mahmud-xon nomidan Nasrulloxonga shunday noma yozadi: "Og'am Muhammad Alixon otasining bevasini halol bilib nikohlab olibdi. Buxoroyi sharif ulamoning konidir. Bu masala bo'yicha qanday hukm chiqargan bo'lishar edi? Siz Movarounnahrning kattasi bo'lasiz. Bu yaramas ishga nima deysiz?"

Maktub amirning orzulari qamalib turgan qo'rg'on eshigini ochish uchun kalit bo'ladi. Amir darhol ulamoni to'plab, maktubni ularga o'qib beradi va bu masala bo'yicha fatvo berishlarini so'raydi. Ulamo kitob ko'rib, Qur'oni Karimning "Otalaringiz uylangan xotinlarni nikohingizga olmag'ni" oyati asosida kerakli fatvoni chiqarib beradi.

Bu Xo'qandga qarshi yurish uchun bir bahona edi. Nasrulloxon ayni vaqtda Eron va Afg'onistondan zamonaviy harbiy taktika va qurol-yarog'lar bo'yicha mutaxassislarni taklif qilib, qo'shinini kuchaytirib olgandi. Ikki yil davom etib, goh Qo'qon, goh Buxoro tomonidan qo'li baland kelib turgan kurash yakunida Ma'dalixon yengiladi. Ortiq qon to'kilmasligi uchun o'zini Nasrulloxon ayyo'qchilari ko'liga topshiradi.

Xudoyorxon zodaning "Anjum ut-tavorix" asarida shunday yoziladi: "Hijriy 1258-yili robu'ssoniy oyining o'rtalarida (milodiy 1842-yil 12-may kuni mazkur oy kirgan) tun yarmidan o'tganda Muhammad Alixon, Sulton Mahmudbek ibn Umarxon jannatmakon, Muhammad Aminbek ibn Muhammad Alixon, Muhammad Alixonning onasi Mohlaroyim, Muhammad Aminbekning onasi va uning homilador xotini, yana ikki nafar mo'tabar ayol bilan Amir Nasrulloh Buxoriy hukmiga binoan ko'shki xoniy bilan tutash bog'da shahodat darajasiga yetkaziladi (qatl etiladi)".

"Ma'dalixon onasiga uylangan" degan gap qayerdan chiqdi? Bu voqealarga Is'hoqxon To'ra Ibrat o'z munosabatini bildirgan: "Muhammad Alixon anosini oldi, degan so'z afvohi nosda joriy bo'lsa ham, bu so'z rost bo'lmay, buxoriy-lar qatllarini aybini satri uchun qilgan qabihalarini tavjihiga chiqarilmish so'zlari ekan. Asl muddao bo'lak ekan. Chunonchi, Umarxon olaman degan Podshohxon oyimni (ng) husnini eshitub,

g'oyibona maftuni jamoli o'lub, muni anga sabab qilib kelgan. Asl visol muddao bo'lsa ham, zohirda Muhammad Alixonni xalqni (ng) ko'ziga osiy, gunohkor ko'rsatib, shariatni poymol qildi, tanbeh darkor, deb kelib, qancha xonzoda va mazluma oyimlarni qatli bag'ayri haq qilib, oxirulamr murod o'shal oyim ekan, olub, muddaasiga yetib, Buxoroga olib ketib, Ibrohim xayol degan bir mang'iti taryokiyni Muhammad Alixon o'rni-ga qo'yub ketib, bir necha oylardan keyin ahli Farg'ona buxoriylarni shundoq dushman tutubdurlarki, xonzodalar va harimlar va joriyalarni so'yub qilgan xuni bag'ayri haqlarini Farg'ona ahlini dimog'iga mahkam o'turub, bu shino'at va shaqovatni (ng) alami bulardan hech chiqmay, mang'itiyadan bir kishi o'l'dursa, yetmish g'ayri mujohirni qatli ila barobar, deb afvohi nosda joriy edi".

Xonlikda yomon bir illat bor edi – taxt talashish. Bu juda katta talofat keltirdi. Hatto, 9 kun xon bo'lganlar bor. Norbo'tabiygacha taxt talashish bo'lmagan. Oiladagi eng katta erkak – o'g'il yo uka bo'lishidan qat'i nazar, taxtga ko'tarilgan. Boshqalar so'ssiz itoat etgan. Ammo keyingi davrdagi ichki nizolar xonlik rivojining orqaga ketishiga sabab bo'lgan. Ma'dalixon qatli bu inqirozni tezlashtirib yubordi. Shundan keyin hokimiyat aslzodalardan turli qavmlarga o'tib ketdi.

– Ibrat domlanning bir gapi bor: "Tarixlar g'ammi toza (yangi) qilor, lekin munda ahli andishalar ibrat olurlar". Aslida, xonlar ham o'z zamonining odami bo'lgan, zamonidan o'zga qayerga ham ketardi. Uchta xonlikni ayblashadiki, birlashmadi, birlashib dush-manga qarshi turganda yengib chiqardi, deb. Ular birlashishi mumkinmide?

– Yo'q. Bu yerda bir masala bor edi: "Birlashsak, yurtini kim boshqaradi?" Hech qaysi xon yoki amir boshqasining boshqaruviga rozi bo'lmadi. Ana shu narsa birlashishga yo'l qo'ymasdi.

Xolis aytish kerak, ittifoqchilik yo'lda muzokaralar boshlangan. Ammo yarim yo'lda qolib ketgan. Chunki Markaziy Osiyoda temuriylar davridagi kabi markazlashgan, yagona davlatning vujudga kelishi boshqa imperiyalarga ma'qul emasdi, albatta. Shu sababli, turli yo'llar bilan og'izbirkilni buzishga harakat qilgan va buning uddasidan ham chiqishgan.

– Domla, keling, "Xo'qandi latif manoqibi" tazrikisiga ham to'xtalib o'taylik. Yaqin orada asarlarda "manoqib", "tazkira" so'zlarini uchratmagan edik. Umuman, bu janrdagi asarlar ham boshqa ko'rinishga evrildi. Qo'qon ta'rif borasida mumtoz yo'l tanlabsiz. Bu asar qanday ehtiyojlar tufayli yozildi? Sarlavhani o'qiganda savol tug'ilishi mumkin: Qo'qonning latifligi nimada? Bunga qanday javob bera olasiz?

– Mustamlakachilikning ikkinchi bosqichi bo'lmish sovet davri ma'naviy o'tmishimiz va hozirgi avlod o'rtasida katta g'ov bo'ldi. Bu davrda ma'naviyatimiz ildizlariga bolta urildi; ma'naviy hayotning barcha sohalarida yuz bergani kabi tarixni o'rganish va o'rgatish ham mafkura nazorati ostiga olindi. Ko'plab mutafakkirlar, fozillar, hatto ularning farzandlari ham yot unsur sifatida jisman yo'q qilindi. Allomalar, pir-ustozlar haqida yozilgan tazkiralr, manoqiblar, hujjatlar qatag'on yillari tazyiqi va vahimasi ostida qabrlarga ko'milib, tandir-o'choqlarga yoqib yuborildi.

Bilmasligimizning sabablaridan yana biri shuki, o'tmishda yashab o'tgan zotlarning ma'naviyatimiz tarixiga qo'shgan hissalarini, xizmatlari, faoliyatlari u yodda tursin, ayrim-larining ism-shariflari ham bizga ma'lum emas. Bu – ulug' zotlarga bo'lgan hurmat-ehtiromimizdan. Ha, ajablanmang, xalqimiz odob-muomalasida kattalarning, ayniqsa, muhtaram zotlarning ism-shariflarini tilga va qalamga olmaslik kabi ezgu bir xislat bor. Masalan, hukmdorlarga "hazrati oliylari", yuqori matnabali zotlarga "janob", tasavvuf shayxlariga "eshonbobo", ahli ilimga "domla" deb murojaat qilingan. Ushbu muomala odobi har qancha ezgu bo'lmasin, tarixning ziyoniga xizmat qilar ekan...

Shulardan kelib chiqib, kamina ilmiy faoliyatim mobaynida to'plagan ma'lumotlar asosida "Xo'qandi latif manoqibi" degan umumiy nom ostida shahrimizning tarixi, ma'naviyati, madaniyati, san'ati, hunarmandchiligi va boshqa jihatlarini qamraydigan majmua yaratishga bel bog'laganman.

Arab tilidan olingan "manoqib" so'zi "fazilatlar bayoni" ma'nosini beradi. O'tmishda buyuk kishilarning fazilatlarini, hayot yo'llari haqida yozilgan, alohida shaxsga bag'ishlangan xotira asari "manoqib" deb atalgan. Ayrim manoqiblar kitob holida, ayrimlari shajara-nasabnomalarga kirish so'zi tarzida yozilgan. "Tazkira" ham arab tilidan olingan bo'lib, "eslatmoq, zikr etmoq, yodga olmoq" tarzida tarjima qilinadi. Tazkira – tarix, tasavvuf, adabiyot va san'at sohasidagi voqea va shaxslar haqida esdalik ruhidagi

asar. Binobarin "Xo'qandi latif manoqibi" – Xo'qandda yashab, faoliyat ko'rsatgan ulug' zotlar, allomalar, so'fiylar haqidagi manoqiblarni o'zida jamlagan tazkiradir.

Maqsadimiz, Xo'qandi latifga latiflik sifati berilishini asoslash, uning surati va siyratini yaratishdir. Xo'qandning latiflik sifatini olishda iymon-e'tiqod, ma'naviyat, ilmning o'rni, xalqni diyonat, poklik, ezgulik sari yetaklagan ilm ahli, pir va ustozlarning xizmatlari beqiyosdir. Shuningdek, Qo'qon me'morchilik maktabi mahsuli bo'lmish ma'naviyat maskanlari – masjid va madrasalar, xonaqoh va boshqa inshootlar shahrimizga yana bir latiflik, ma'naviy ruh baxsh etgan. Bu inshootlar tarixi ham o'rganishga arziydir.

– Domla, bulardan tashqari, qo'qonlik-larning latifago'yiligi, hokimiyatligi, lutfi ham latif nisbatiga sabab bo'lsa kerak. Ayniqsa, shoirlar latoifi...

"Manoqib"ni o'qish jarayonida ommaga ma'lum bo'lmagan o'nlab shoirlar va ularning ijodi bilan tanishdik. Ayniqsa, Sadoyining "Ta'rif Xo'qand" g'azali alohida ajralib turar ekan.

– Mirhasan Sadoyi XIX asr boshida yashab ijod qilgan so'fiy shoir. Siz eslagan g'azal Xo'qandning latifligini isbotlaydigan va ta'riflaydigan eng yaxshi asar bo'lsa, ajab emas. Men san'atkorlarga kuyga solaylik dedim, hozircha eplasholmayapti. Baytlarning go'zalligini qarang:

Shukrilliloh aytayluki,
ne'mat farovondur Xo'qand,

Har mato'ye,
jumla ashyolardurki arzondur Xo'qand...

To'jig-u o'zbek demas,
barcha barobar, bilsangiz,

Xush musofirparvar-u lutfi
farovondur Xo'qand...

Bu shoir Norbo'tabiy davrida yashab, ijod qilgan. Bugungi tilga juda yaqin g'azal. Bir o'qigan odam buni forschadan tarjimamikin deb ham o'ylaydi. Lekin bu sof o'zbekcha asl nusxa.

Norbo'tabiy davri Qo'qon uchun eng gullagan davr – nihoyatda arzonchilik, serob-chilik, tinchlik, omonlik zamoni bo'lgan. O'sha paytda eng mayda pul birligi fulus bo'lib, unga to'rtta non bergan. Sotuvchilar qaytim topib bera olmagani. Chunki bundan mayda pul bo'lmagan. Oxiri fulusning yarmiga teng bo'lgan qorafulus chiqarilgan. Shundan keyin pul muomalasi biroz joyiga kelgan.

– O'sha paytdagi rus sayyohlari Qo'qonni Buxorodan 4 marta, Tehrondan 6 marta katta shahar deb ta'riflagan ekan. Buning manbayi nima bo'lgan?

– Avvalo, qo'qonliklarning mehnatsevarligi va mahorati. Qolaversa, xalqining savdoga ustaligi, hunarmandlarining ishi puxtaligi. Xo'qand hunarmandchilik mahsulotlariga chet elda talab yuqori bo'lgan. E'tibor bering, Qo'qonga nisbat berib aytiladigan 350 ta buyum topdim, bugun brend deydi-ku... Xo'qand do'ppi, Xo'qand arava, Xo'qand patir, Xo'qand halvo va boshqalar.

2021-yilda G'afur G'ulom nashriyotida "Xo'qandi latif hunarmandchiligi" nomli kitobim chop etildi. Unda qadim zamonlardan to XX asr boshlarigacha Xo'qandda mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq 415 ta, savdo, ovqatlanish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq 182 ta, madaniyat, maorif va ma'naviyat sohalarini bo'yicha 111, jami 708 ta kasb-hunar, ularning ustalari, ustoz-shogird maktabi haqida batafsil ma'lumot yozilgan.

Hunarmandchilik shahar tarixi bilan teng. Qo'qon hunarmandchilik orqasidan shahar bo'lgan.

– Kelgusidagi ilmiy-ijodiy rejalarimiz qanday? Ayni kunlarda qaysi asarlar ustida ishlayapsiz?

– Kitob chiqarishning uchta tomoni bor ekan – o'tirib yozish, chiqarish uchun homiy topish, so'ng tarqatish. Tajribamdan ko'rdimki, eng osoni yozish ekan. Ba'zan odamlar kitob o'qimaydi, deb, yozmay qo'y'a qolay deymen-u, yoshlarning kuyunchak savollarini eshitib, yana "qo'lim qichiydi". Balki shu bolalardan chiqar, deymen bo'lajak Renessans allomalari.

Hozir "Qo'qon joy nomlari tarixi" kitoblari ustida ish jarayoni davom etyapti. "Qo'qon jadidlari" kitobi yarimlab qoldi. Hozircha 75 nafar ma'rifatparvarning hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar jamladim.

– Sizga katta rahmat, domla, sog' bo'ling! Kuch-quvvat, sog'liqdan ayirmasin! Izn bersangiz, qissadan hissa chiqarsak. Xulosa aniq: tarix biz uchun ibrat maktabi, fojialarga sabab – ilmsizlik va xurofot, mag'lubiyatlarga bois esa, tarqoqlik, xudbinlik, mahdudlik... Demak, jadid bobolarimiz takrorlagani kabi "Najot – ilmda, ma'rifatda".

Iqbol MIRZO suhbatlashdi.



Boshlanishi 1-sahifada.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi, Navoiy viloyat hokimligi hamda Navoiy davlat pedagogika universiteti hamkorligida o'tkazilgan tadbirda taniqli olim va adiblarimiz, jamoatchilik vakillari, faol yoshlar, shuningdek, 20 ga yaqin xorijiy davlatdan Navoiy ijodi muhoblari ishtirok etdi. Marosim ulug' mutafakkir haykali poiyiga gul qo'yish bilan boshlandi.



Anjumanning tantanali ochilish marosimida Navoiy viloyati hokimi Normat Tursunov so'z olib, anjuman ishtirokchilarini tabrikladi. Shuningdek, tadbirda so'zga chiqqanlar Alisher Navoiydek beqiyos siymo yaratgan adabiy xazina qiymatini chuqur anglash, unda aks etgan ezgu g'oyalarni keng targ'ib qilish bugungi kunimiz uchun juda muhimligi, jahon sivilizatsiyasi tarixidan mustahkam o'rin olgan ulug' shoir ijodiyotiga dunyo olimlarining e'tibori tobora oshib borayotgani uning sharafiga yana asrlar osha so'nmasligidan dalolat ekanini ta'kidlab o'tdi.

Tadbirda Alisher Navoiy ijodining uzoq yillik targ'ibotchilaridan biri, turkiyalik taniqli adabiyotshunos olim Kemal Yavuz Atamanga Navoiy davlat pedagogika universitetining faxriy professori unvoni berildi.

Men Alisher Navoiyga bag'ishlab o'nlab ilmiy maqola yozdim, uning ijodini baholi qudrat targ'ib qilib kelmog'daman, — deydi olim. — Turkiyada hazrat Navoiyni yaxshi biladilar. Ushbu xalqaro

bayramda yana bir ezgu tashabbus — ma'ruzachi-ishtirokchilarning ilmga qo'shgan hisssasi uchun bir tupdan daraxt ekish taklifi bildirildi. O'zbekistonlik qardoshlarimizga xushxabarimiz bor: Ko'nyo shahrida ham Alisher Navoiy bog'ini yaratish ishlari ketmoqda. Bu turkiy dunyomizning Alisher Navoiydek ulug' allomasiga xalqimizning yuksak ehtiromi namunasidir.

Shundan so'ng, navoiyshunoslar yetti sho'baga bo'linib, ilmiy-amaliy mashg'ulot, musohaba, muzozaralar o'tkazdi. Jumladan, "Jahon navoiyshunosligi: bugungi yutuqlar va yangiliklar", "Navoiy ijodiyoti tadqiqi: fanlararo munosabat va zamonaviy talqin", "Alisher Navoiy adabiy merosi va umumbashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti" kabi qator mavzularda fikr almashildi.

Konferensiyaning ikkinchi kuni ishtirokchilar Nurota shahridagi "Chashma" ziyoratgohiga tashrif buyurdi, so'ng tuman markazidagi amfiteatrdagi musiqiy-ma'rifiy dastur namoyish etildi. Anjuman nihoyasida mehmonlar Navoiy shahrining diqqatga sazovor joylari, shuningdek, Navoiy davlat pedagogika universitetida tashkil etilgan "Qatag'on qurbonlari muzeyi"ni borib ko'rishdi.

Yuqori saviyada tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman mumtoz adabiyotga oshiq qalblarni bir-biriga payvasta qildi.

Muhayyo RUSTAMOVA

“Har bir millatning millat ekanligini ko'rsatadurg'on oynayi jahoni uning tili va adabiyotidir.

Abdulla AVLONIY

HIKOYA

— Assalomu alaykum, — telefon-da bog'chada tarbiyalanayotgan bolalarga xos ovoz eshitildi, — bu yo'qolgan buyumlarni topib beradigan idoram?

— Ha, kichikintoy. Nima yo'qotding?

— Oyimni.

— Oyimni? — ajabsindi topilmalar byurosining xodimi. — Oying qanaqa edi?

— Juda chiroyli, judayam mehribon. Ha, yana mushuklarni yaxshi ko'rardi.

— Bo'ldi-bo'ldi. Kecha xuddi shunday oyi topgan edik. Sening oying bo'lsa kerak. Qayerdan telefon qilyapsan?

— Uchinchi bolalar uyidan.

— Yaxshi. Hoziroq oyingni jo'natamiz. Kutib tur.

Ayol Qo'zivoyni xonasiga kirib kelganda, u eshikka termulib o'tirar edi. Ayol chindan ham go'zal, yuzidan shunday mehr yog'ilib turar, yana, deng, qo'lida mushukcha ko'tarib olgan. Qo'g'irchoq emas, jonli.

— Oyi! — Bola o'zini ayolning quchog'iga otdi. Ayol ham uni ko'tarib bag'riga bosdi. Bola uning yelkalariga osilib, shunday qattiq quchoqladiki, shunday qilmasa, yana yo'qotib qo'yadiganday. — Oyijon!

Bola o'zining qichqirig'idan o'zi uyg'onib ketdi. O'tirgan ko'yi jovdirab atrofqa qaradi, keyin hafsalasi pir bo'lgan odamday bo'shashganicha to'shagining ichiga kirdi. U har kuni shunday tush ko'radi. Har kuni tushi ro'yo bo'lib chiqadi. Bolakay yostiqchasining ostidan surat olib, unga termuldi: “Oyijon, qayerdasiz?”

Ancha bo'ldi, bola suratni hovlida o'ynayotganda topib olgan. O'shandan beri uni avaylab-asraydi. Suratdagi ayol mening oyim deb

ishonadi, uni kutadi. O'ngida ham, tushlarida ham. Bola suratni silagancha uxlab qoldi.

Bolalar uyi mudirasi har kuni ertalab birma-bir xonalarni aylanishga odatlangan — bolalarni uyg'otib chiqadi, shu bahona ulardan xabar oladi. Bugun ham u aylanar ekan, Qo'zivoyni xonasiga kirganda, ko'zi polda yotgan suratga tushdi. Uni qo'lga oldi-da, bolaning yelkasini silab uyg'otdi:

— Qo'zivoyni, bu suratni qayerdan olding?

Bola ko'zlarini ishqalab oldi-da, javob berdi:

— Hovlida yotgan ekan.

— Nega uni asrayapsan? Kiming bo'ladi?

— Oyim. Qarang, juda chiroyli, mehribon. Mushuklarni yaxshi ko'radi.

Mudira ayolni tanidi — suratda yoshi kattaroq bo'lib ko'rinay ham, o'zi navvoh qiz, ismi Xayri edi. Ancha bo'ldi, bolalar uyini otaliqqa olgan universitet talabalari bilan kelgan, yetim bolalarga ayrica mehribonlik ko'rsatgan — o'yinchoqlar sovg'a qilgan. O'shandan buyon u tez-tez keladigan bo'lib qoldi — tarbiyalanayotgan bolalardan birini asrab olish uchun hujjatlar to'plar edi. Chamas, rasmi o'sha tashriflardan birida tushib qolgan bo'lsa kerak. Bir necha marta arizasini rad qilishga majbur bo'lishdi. Sababi, hali turmush qurmagan edi.

Mudira Qo'zivoyni dalda berganday g'udrandi:

— Sening oying bo'lsa, uni topamiz...

Xonaning eshigi taqillab ochildi-da, Xayri ko'rinib berdi.

— Kiraver, bema'lol, — lutf qildi mudira.

Xayri ishora qilingan stulga omonatgina o'tirdi.

— Mana, — dedi u qo'ltig'iga qistirilgan jildni stol ustiga qo'yar

ekan. — Aytganlaringizning hammasini yig'dim.

— Ma'qul, singlim, — mudira unga sinovchan tikildi. — Senga savollarim bor. Nima qaror qilayotganingni tushunayapsanmi?

Qanday mas'uliyatni zimmangga olishingni angalayapsanmi? Qarindosh-urug'ing nima deydi? Atrofingdagilar? Axir, bola — bir kunlik qo'g'irchoq emas.

Xudo xohlasa. Ishoning, opa.

Mudira qizning samimiyatidan, dadilligidan rohatlandi, baribir, ogohlantirish burchi edi:

— Hali turmush qurmagansan. Erga tegsang, farzand ko'rsan — buyog'ini ham o'yladingmi?

— Ha, opa, — dedi Xayri yana dadillik bilan. Javobidan izohsiz ham bu haqda ko'p o'ylagan

Mudiraning kayfiyati tushdi. Yetim qizlarga osonmas, hech kimi yo'q deya kamsitadiganlar ko'p.

— Unaqa dema, yaxshi yashab ketayotganlari ham bor, — mudira shunday dedi-yu, bir xo'rsinib oldi. — Xo'p unda. Qachon tanlamoqchisan?

— Tanlamayman. O'zim tug'sam, tanlab tug'armidim? Bolani Xudo beradi, deyishadi-ku. Qaysi ota-ona tug'ilajak bolasini tanlaydi? Chiroylimi, xunukmi, soppa-sog'mi yo... Qanaqa tug'olsa ham, yaxshi ko'rishi kerak-da, ona bo'lgandan keyin...

Xayrining so'zlari mudirani hayratga soldi. U ichida: “O'zingga shukr, Xudoyim” deb qo'ydi. Keyin Xayriga yuzlandi:

— Sen tanlamaydigan bo'lsang, seni tanlab bo'lishgan. Ismi Qo'zivoyni. Istasang, hoziroq olib kelaman.

— Ha-ha. Mayli, opa, hozir bo'lgani yaxshi, — dedi Xayri boyagiday qat'iy.

Mudira xonadan chiqib, ko'p o'tmay Qo'zivoyni yetaklab qaytdi:

— Qo'zivoyni, bu sening oying...

Mudira so'zini tugatmasdan, Qo'zivoyni o'zini Xayrining bag'riga tashladi:

— Oyi, oyijonim!

Xayri bolani bag'riga bosib, yelkalarini silay boshladi:

— O'g'lim, o'g'ilginam.

Xona sukunatga cho'mganday edi. Jimlikni Xayri buzdi:

— Hujjatlar... Qachon olib ketsam bo'ladi?

— Endi taomilga ko'ra, bir necha kun kelib, bolani o'zingga o'rgatish kerak. O'zing ham ko'nikishing...

— Yo'q, — dedi Xayri yana o'sha fe'lini namoyish qilib, — ruxsat bersangiz, hozir olib ketaman.

— Mayli, roziman, — dedi mudira avvaldan qaror qilib qo'yganiga muvofiq. Uning yana bir tarbiyalanuvchi taqdiridan ko'ngli to'q, ertalabki rasm voqeasidan

BADIY TAFAKKUR SAFOSI

Azizulloh OROL (Afg'oniston):

— Navoiy shahriga kiraverishda ajoyib bir lavhaga ko'zim tushdi. Unda “2025-yil — Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili” deb yozilgan ekan. Beixtiyor, bu sananing nega Navoiy viloyatiga berilganini tahlil qilsak, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bundan besh yil oldin, 2020-yilda BMTda birinchi bor o'zbekcha nutq so'zlaganida, “Biz buyuk Navoiyning tilida so'zlashyapmiz”, deganlarini esga olish kifoya. Buni qarangki, bir shoirning nafasi dengizlar osha boshqa diyorlarga ham yetib bordi.

Alisher Navoiy bundan olti asr oldin tug'ilgan bo'lsa-da, hozirga qadar ijod qilib to'xtamayotganday. Uning asarlari Yer shariga o'xshab aylanib, yana o'sha

nuqtasiga kelaveradi, eskirmaydi. Negaki, bugungi ma'naviy masalalar Navoiy asarlarida allaqachon o'z aksini topgan. Yangi O'zbekistonning kelajagini yaratishda ham uning asarlaridan, g'oyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Biz ulug' mutafakkirning ma'naviy shajarasini yoshlarga bog'lashga harakat qilishimiz kerak, nazarimda. Men maktabdagi har bir muallim Navoiy ijodidan imtihon topshirishi va shundan keyingina unga bolalarga dars berish huquqi berilishi kerak, deb o'ylayman.

Konferensiya haqiqatan Navoiy shaxsi va sharafiga xos o'tdi. Biz sho'balarda o'z ma'ruzalarimizni taqdim etdik, Navoiy bugun bizga nima berayotganini muhokama qildik. Mana shunday yig'inlar, tadbirlar, ma'ruzalar tez-tez tashkil etilsa, bu albatta yoshlar ongi orqali yurt kelajagiga ta'sir etishi shubhasiz.



MUTAFAKKIR TILINI O'RGATGAN MUHABBAT

— Ibrohim Xudoyor, professor (Eron):

— Yigirma besh yil oldin Eron Islom Respublikasining O'zbekistondagi el-chixonasida ishlar edim. O'sha paytda juda ko'p o'zbek olim va shoirlari, yozuvchilari bilan tanishdim. Biz maxsus jurnal tashkil qilib, unda o'zbek va fors adabiyotiga oid qator maqolalar chop ettirdik. Jurnal sahifalaridagi she'r va g'azallar meni o'ziga torta boshladi.

O'zbekistonga kelgan ilk kunlarimda bo'lib o'tgan adabiy uchrashuvda bir notiqning “zamin, osmon” kabi so'zlarni qo'llagan ham meni o'ziga qandaydir boshqacha jalb etgandi. Shu tariqa, menda o'zbek adabiyotiga qiziqish

uyg'ondi. Lug'atimizda o'xshash so'zlar bor ekan, demak, azal-azaldan eron-o'zbek mushtarakligi bor.

Alisher Navoiy nomi Eronda necha asrlardan buyon mashhurdir. U forsiylar orasida Foni, turkiylar ichida esa Navoiy nomi bilan tanilgan.

Men bir narsani ta'kidlamoqchiman, hamdillik hamisha yaxshidir. Ya'ni, biz hamdilmiz, bizning tilimiz boshqa bo'lsa-da, dilimiz bir. Shuning uchun ham biz bir-birimiz bilan farovonmiz. To Navoiy bor ekan, to Jomiy bor ekan, do'stmiz, yaqinmiz.

Navoiyni forsiyda ham ijod qilishga nima undagan? Muhabbat! Meni ham Navoiy ijodini o'rganishga ana shu muhabbat chorladi.

DUO



Bu — bir umrga...

— Hammasini tushunaman, opa. Rosa o'ylaganman. Qarindoshlarim yo'q. O'zim ham...

— duduqlandi Xayri. — Hammasi yaxshi bo'ladi,

sezilib turar edi. — Hali qachon turmush quraman-u... Erga tekkan dugonalarimdan bittasi bir yil o'tar-o'tmas, yana biri qirqi chiqmay ajrashib ketdi.

bezovtalangan ko'ngli yorishgan edi.

Ochiq qolgan eshikning u tomonida g'ujig'on bo'lib kuzatayotgan tarbiyachilar, enagalar, hamshiralari ham yelib-yugurib qolishdi — biri Qo'zivoyni narsalarini yig'ishtirib keldi, biri qog'oz xaltaga u-bu yegulik soldi. Boshqalari ham mamnun, hatto ko'zyoshlarini dastromolga artib ham olishdi.

— Qo'zivoyni, kel, men bilan xayrlash...

— Mehmonga kelib turgin, xo'pmi?...

— Bizni uzoq sog'intirma...

Taqdir topishtirgan ona-bola yetaklashib ko'chaga chiqishdi. Ularning oldidan malla mushuk yugurib o'tdi. Qo'zivoyni shubhanganday asta so'radi:

— Oyi, mushuklarni yaxshi ko'rasiz-a?

— Bo'lmasan-chi. Uyga borsang, o'zing ko'rmasan.

Bola quvonganidan bir-ikki sakrab oldi. Xayri ham unga qo'shilib, qo'lidagi ikki xaltani aylantirib raqsga tushganday bo'ldi.

Bu manzarani derazadan kuzatib turgan mudira ko'kka boqdi. Osmon ufqqacha oqish-qo'ng'ir bulut bilan qoplangan edi.

Mudira duoga qo'l ochdi:

— Illohim, ularni o'z panohingga ol, bir-biriga mehr-u muhabbat ato et! Shunday qalbi pok bandangdan saxovatingni darig' tutma! O'ziga o'xshagan pok niyatli, mehrsadoqatli, iymonli umrdosh ato et! Norasidalarini ona mehridan, ota tarbiyasidan musovo qilma!

Mudira kaftlarini yuziga tortar ekan, quyosh yog'dusi bulutlar orasini yorib, chor-atrofni yashnatib yubordi — farishtalar “Omin!” deganday.

Rus tilidan
Abdulla A'ZAMning
erkin tarjimai.



TADBIR

TIL BOR EKAN – MILLAT BARHAYOT

O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida shu mavzuda ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Unda olimlar, o'qituvchilar, xodimlar hamda talabalar ishtirok etdi. Tilshunoslik sohasining jonkuyar mutaxassislari taklif etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakillik organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, din va yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi rektori Muzaffar Komilov yig'ilganlarni qutlug' sana bilan tabriklab, nutq so'z'ladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bayram arafasida qabul qilingan "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ko'rsatib o'tilgan

asosiy maqsad va vazifalarga to'xtaldi. Ayniqsa, ushbu qaror bilan tasdiqlangan "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2025-2026-yillarda amalga oshirish dasturi"ni hayotga joriy etishda nafaqat mas'ul va mutasaddi tashkilotlar, balki ziyolilar, pedagoglar, talaba-yoshlar ham faol ishtirok etishi zarurligiga urg'u berdi.

So'z olgan professor-o'qituvchilar bugungi kunda Akademiyada "O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti" kafedrasida faoliyat yuritayotgani, unda xalqimiz tili, tarixi, madaniyati, ilm-fani sohasiga ulkan hissa qo'shgan allomalar hayoti va faoliyati, asarlari ilmiy asosda o'rganilayotgani hamda yoshlarga yetkazilayotganini ta'kidladi.

Tadbir doirasida "O'zbek tili – qalbim tarjimoni" esselar tanlovining oliy ta'lim muassasasi bosqichi g'oliblari taqdirlandi. Ushbu

tanlov orqali Akademiyada tahsil olayotgan xorijlik talabalar davlat tiliga oid bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi, til vositasida yurtimiz tarixi, madaniyati, urf-odatlariga yana bir bor nazar tashlaydi.

Badiiy qismda yosh adib Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" romani asosida talabalar teatr studiyasi tomonidan sahnalashtirilgan "Millat fidoyilari" spektakli namoyish etildi. Sahna asari yigit-qizlarga jadid bobolarimizning ta'lim sohasiga bergan e'tibori, XX asr boshidagi intiluvchan yoshlarning turli to'siqlarga qaramay xorijda astoydil ilm olgani haqida ma'lumot beradi.

Bu kabi ma'rifiy tadbirlar faqat oktyabr oyida emas, yil davomida o'tkazib borilishi, ularni yuqori saviyada tashkil etishda ma'muriyat talabalarning taklif va g'oyalariga ochiqligi ma'lum qilindi.

Vasila HABIBULLAYEVA

TAAJJUB

ASRIY HASRAT

yoxud tarixtalasharlar talvasasi

...Talabalar bilan bir uchrashuvda kutilmagan savolga javob berish majburiyatida qoldim. Bu savolni talaba emas, ularga saboq berayotgan, yana deng, tarix bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olgan domla bergani g'oyat tashvishli, achinarli edi. Savol jahon fanida inqilob yasagan "buyuk olimlar beshtaligi"ga kirgan Muhammad Xorazmiyning millati haqida edi. Buyuk olim yashagan davrda hali bugungi millat tushunchasi bo'lmagani, bu tushuncha keyingi davrlarda muomalaga kiritilgani, Xorazmiy barcha ilmiy asarlarini o'sha davrda fan tili hisoblangan arab tilida yozgani, bundan tashqari, saltanat hujjatlarini yuritishda amalda bo'lgan forsiy hamda yerlik xalqning o'zaro muloqotida turkiy va boshqa bir qator tillardan foydalangani, olimning qaysi millatga aloqadorligidan bahs ochishning o'zi ortiqchaligini aytdim.

Javobim yakunlanmasdan, talabalardan biri qaysidir ijtimoiy tarmoqda Xorazmiy o'troqlashgan arablardan ekani, shu sababli, asarlarini arab tilida yozgani va umri ni aynan qondoshlari tuprog'ida poyonlagani haqida aytib qoldi. Yana falsafa so'qish ortiqchaligi uchun javobni qisqa qildim: "Kimning qay qavmga mansub ekanini aniqlash uchun uning DNKsini ekspertizadan o'tkazish kerak. Bu sohada esa no'noqman..." Bildimki, talabalar (va hatto tarixchi domla ham) ijtimoiy tarmoqlarda "bolalab" ketgan "tarixtalasharlar" saytlariga kirib turishadi, u yerdagi hudud, millat talashib, obro'-sha'n talashib yoqavayron bo'layotgan soxta olimlar yoyayotgan safsatalar bilan miyalarini "yuviashadi".

Afsuslanarlisi, ijtimoiy tarmoqlardagi turli-tuman "podkast"lar ayrimlarning zehniyatlariga tobora o'r'nashib bormoqda. Eldagi to'y-ma'raka va davralarda qishloqdan chekkaga chiqmagan kishilarning shu mazmundagi savollariga javob qaytarganim bor. Ularni tushunsa bo'lar, ammo ziyoli insonlarning chalg'ishlari, shu mazmunda savol berishlari, faqat savol bilan cheklanmay tortishishlari sahna ortida turgan yovuz niyatli kimsalar tomonidan tashkillashtirilgan loyihalarning ma'lum ma'noda o'z oldlariga qo'ygan maqsadlarga bir qadar erishgani, erishayotganini ko'rsatadi.

Hozirgi global zamonda dunyoda o'z davlatchiligiga ega turkiy millatlarning birikish harakati yil sayin taraqqiy topib, Turkiy davlatlar ittifoqi atamasi shunchaki qog'ozdagi chaqiriqdan aniq rejali harakatga aylanib borayotgan davrda unga qarshi kuchlar talvasaga tushib, turli ig'vo va bo'htonlar, yolg'on-yashiqlar bilan yoshlar ongini zaharlashayotganiga befarq qarab turish mumkin emas.

Yodimizda, "yagona sovet xalqi" atamasi zo'rlab ongimizga singdirilgan sobiq sho'rolar davri nihoyasida bir olimnuxsa qandaydir "boltalab bo'lish siyosati" haqida kitob chop qilib, qadim Turkiston hududida ming-ming yillardan buyon yelkama-yelka yashayotgan, quda-anda millatlar orasiga nifoq solishni boshlab bergan edi. Ildizi to'qima tarixga asos bo'lgan ushbu g'oya, afsuski, hamon yashovchan. Ijtimoiy tarmoqlarda "kim – kimniki", "yer kimniki" deb yoqa yirtishayotganlar ro'yxatiga sin solsangiz, "ey, bo'ldi" deb bahsga nuqta qo'yishga ko'tarilgan qo'lingiz beixtiyor telefon murvatlariga tekkani sezmay, istab-istamagan holda bahsga qo'shilib ketasiz. Yozgan haq gaplaringiz uchun haqoratga ko'mib tashlashgani mayli, "mahkamaga tortish", "topib sazoyi qilish" tahdidi hammasidan oshib tushadi. Shungami, aksar ziyolilar bu bahslardan chetda turishni ma'qul ko'radi, asablarini asrashadi. O'zlarining shu harakatlarini maqbul

bilishlari bir tomondan to'g'ridir, ammo... o'sha uchrashuvdagi tomondan tarasha tushganday berilgan savol ertaga, indinga qayta va qayta berilmasligiga kafolat yo'q! Milliy nizo qo'zg'ashni maqsad qilgan yashirin kuchlarning fisq-u fasodiga yarasha javob qaytarmoq har birimizning burchimiz, aslida!

O'z vaqtida jadid bobolarimiz ushbu illatlarga jim turishmagan, "tarixtalashar", "shaxstalashar" kimsalarga munosib javob qaytarib, ularning tanobini tortib qo'yishgan. Masalan, buyuk adib Abdulla Qodiriy "Qizil bayroq" gazetasining 1923-yil 17-may sonida chop qilingan "Bildirishlar" ("Hangoma") nomli maqolasining "Tilxat" nomli ixcham bo'limida shunday yozadi:



"Mankim, Turkiston o'zbeklarining vakilidirman. Beraman ushbu tilxatni Tatariston vakili ibdash Abdurahmon Sa'di'ga shul xususdakin, Chingiz, Temur, Ahmad Yassaviy, namanganlik shoh Mashrab, Abu Ali ibn Sino... bularning hammasi ham tatarlardir. Tatar qarindoshlar mazkurlarni har bir yo'sin bilan tasarruf etmakka haqlidirlar. Temur, Ahmad Yassaviy, shoh Mashrab mardumlarning qabrlarini buzib, na'shlarini Tataristonga ko'chirilganda o'zbeklar churq etmay, balki ko'mak berurlar. Navoiyning tatarmi va yoki o'zbekmi masalasi alohida bir majlisda o'turishda hal qilinur. O'zbek vakili Dumbulboyev".

Kesatib yozilgan ushbu kichik xabardan ko'rinadiki, o'tgan asr boshlarida ham peshonamizga taqdir bitgan ulug'larni o'zga millatlar "bizniki" deb da'vo qilgan, bu haqda davralarda gapirish bilan cheklanmay, vaqtli matbuotda iddaoli maqolalar chop qilgan. Qodiriy o'z kesatig'iga "Dumbulboyev" taxallusini tanlagani ham bejiz emas. Bu bilan u atrofdagi ayrimlarning bu kabi ig'volarga beparvoligiga nisbatan go'yoki "bir dumbul" o'latiroq javob qaytarish majburiyatini olganiga ishora qilgan.

Qodiriy millatlar orasida nizo qo'zg'ovchilarga qarshi yana bir qancha maqolalar e'lon qilgan. "Mushtum" jurnalining 1925-yil 22-sonida "Bir yil" maqolasida bildirgan keskin fikrlariga e'tibor bering: "Biz haqiqatni hayotdan oldiq. Hammasdan ilgari shaxs o'zini tanisin, so'ngra boshqani! Zero, "O'zini bilmagan o'zgani bilmas", so'zi turmush onasining dard chekib tuqqan to'ng'ich o'g'lidir".

Adibning "O'zini bilmagan o'zgani bilmas" so'zini "turmush onasining dard chekib tuqqan to'ng'ich o'g'lidir", deya ta'riflashi ortida millatparvarlik yotibdi. Yozuvchi bu orqali "O'zgalarni taftish qilguncha (biror narsasini o'ziniki qilishga urinish orqali), avvalo o'zingni, tarixingni bil!" deya bong urmoqda. Zero, jadid bobolarimiz dolg'ali zamonlarda amaliyotga aylantirmoqchi bo'lgan maqsadlardan biri – maorif tizimini isloh qilish ortida ham millatning ko'zini ochish, o'zligini anglashga imkon yaratish, shu orqali yaxlit, jipslashgan millatni shakllantirish edi. Poydevori ilm-u ma'rifat, ezgulik,

haqqoniyat asosiga qurilgan jamiyatni tashqi kuchlar hech qachon tanazzul sari boshlay olmaydilar, urinishlari "It hurar, karvon o'tar" qabilida qolaveradi.

Ahli donishlar "Har qanday yangilik – unutilgan eskilik", deganlar. Haqiqat uchun boshini kundaga tikkan jadid bobolarimizdan qolgan asriy hasrat bugun yana bosh ko'tarmoqda. Ular bir asr ilgari katta-kichik davralarda, kam sonli vaqtli matbuot sahifalarida ig'vo qo'zg'ashga uringan bo'lsa, bugun ularning qo'lida qudratli va tezkor qurol bor – bu, internet. Qo'lida shapaloqdek telefoni bor har kimning uyiga kirib borgan "o'rgimchak to'ri" ayni zamonda odamlar ongini kecha-yu kunduz zaharlash bilan

IZHOR

JAMIYATIMIZNI BIRLASHTIRUVCHI KUCH

**Qahramon SARIYEV,
Millatlararo munosabatlar va xorijdagi
vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi raisi:**

– O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 36 yilligi munosabati bilan Qo'mitamizda oktyabr – "O'zbek tili oyligi" deb e'lon qilindi va oylik doirasida bir qancha muhim tadbirlar o'tkazildi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi bilan hamkorlikda milliy madaniy markazlar rahbarlari, faollari uchun bepul kurslarni tashkil qildik. Ma'lumot uchun, bugungi kunda yurtimizda 157 ta milliy madaniy markaz faoliyat yuritmoqda.

Oylik davomida turli millat vakillari o'rtasida o'zbek tilidagi "Eng yaxshi she'r ijrochisi" va "Eng yaxshi



qo'shiq" tanlovini e'lon qildik. Qisqa fursatda yuzdan ortiq ijodiy ishlar kelib tushdi. Saralash bosqichida o'ttiz mingdan ortiq yurtdoshlarimiz videoroliklarga ijtimoiy tarmoqlar orqali munosabat bildirib, o'z bahosini berdi. Hakamlar hay'ati xulosasi bilan g'olib deb topilganlar O'zbek tili bayrami arafasida tantanali ravishda taqdirlandi.

Bayramona jo'shqin kayfiyat milliy madaniy markazlar qoshidagi havaskorlik, folklor, etnografik jamoalarga

TAQDIMOT

SHAYXZODA ASARI OZAR TILIDA

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.Vosiqova nomidagi akademik liseyda atoqli adib Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub "G'azal mulkingning sultoni" kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi. Mazkur asar Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti ilmiy kengashi qarori bilan nashr etilgan. "Til va ta'lim: innovatsion yondashuv va muammolar" I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida tashkil etilgan tadbirda taniqli olimlar, talabalar va adabiyot muxlislari ishtirok etdi.

Asar tarjimoni va so'zboshi muallifi navoiyshunos olimasi Almaz Ulvi Binnatova hisoblanadi. Nashrga akademik Isa Habibbeyli ilmiy muharrir, dotsent Sirajaddin Hojili muharrirlik qilgan. Kitob 53 yil muqaddam e'lon

dasturilamal bo'lib, ularda belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish bo'yicha qo'mitamiz vakillari ham o'z oldiga qator rejalarni belgilab oldi. Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, Yangi O'zbekistonni qurish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lidagi olijanob sa'y-harakatlarga munosib hissa qo'shish – barchamizning bosh maqsadimizdir.

Jasmina ISROIL yozib oldi.

Jamoliddin BADALOV



Boshlanishi 1-sahifada.

Ana “hayo”, ana “odob”. Kiyinishlarini ko’rsangiz. Ko’ylak tiktirishayotganida nozik qomatlarining ba’zi joylariga mato yetmay qolganday. Yomg’irdan qutulib, qorga tutilibmiz.

Peshonamiz tirishib turganida, “Qora niyat” seriali boshlandi. Bitta gapni ikki-uch oyga cho’zish mumkin ekan. Qahramonlar o’zaro olishuvda o’q yeb, yuragi jiddiy jarohatlanadi, ammo oradan bir osh pishig’i vaqt o’tmay, o’rnilaridan turib, otday yurib ketishadi. Ha, mayli, o’zimznikidan qolmaylik, deb umidvor bo’ldik.

Oradan yillar o’tdi. Mahalliy mualliflar tomoshabinlar hukmiga ko’plab seriallarni havola etishdi. Ularning hammasini ham yomon deb bo’lmaydi, ibrat olsa, xulosa chiqarsa bo’ladiganlari bor, albatta. Yangi telejandra maqsadga erishish uchun ko’p izlanish qilish kerak, dastlabki urinishlardagi kamchiliklarni yo’l-yo’lakay tuzatib borish zarur. Shunday qilinmasa, seriallar xususida jamoatchilik fikri o’rganilmasa, ko’zlangan maqsad qolib, boshqa bir tomonga og’ib ketish, “qosh qo’yaman deb, ko’z chiqarish” hech gap emas. Ming afsuski, bugun xuddi mana shu boshqa tomonga og’ish holatlari serialdan serialga ildiz otayotganiga guvoh bo’lib turibmiz.

Gapni o’ramay-buramay aytadigan bo’lsak, millat sha’ni, g’urur va origa tegib ketadigan “asar”lar ko’payib ketdi, serialchilik “sog’in sigir”ga aylanib, bu nomaqbul

achinarlisi, davlat kanallarida yurtimiz ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayotiga oid muhim xabarlar, Yangi O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqimiz hayoti, turmush tarziga ta’siri haqidagi yangiliklar e’lon qilinaayotganida, mamlakatimiz rahbarining farmon va qarorlari ijrosiga doir tahliliy ko’rsatuvlar namoyishi boshlanganida, xususi kanallarda pufak seriallar hujumga o’tadi.

Davlatimiz rahbari Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2023-yil 22-dekabrda o’tkazilgan yig’ilishida bu haqda to’xtalib, “Savol tug’iladi: xalqimiz televizorni eng ko’p ko’radigan paytlarda, ya’ni “praym-taym” vaqtida xorijiy seriallarga katta o’rin berayotganimiz qanchalik to’g’ri? Bu oldimizga kechiktirib bo’lmaydigan dolzarb vazifalarni qo’y-moqda. Jumladan, milliy seriallar ishlab chiqarish bo’yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish lozim”, deya ta’kidlagan edi. Bu talabni e’tiborga olmaslik mumkin emas.

Bir necha yillar avval namoyish etilgan chala-dumbul seriallar qayta-qayta ekranga olib chiqilayotganini tushunish qiyin. Chunki yoshlar ulardan ko’p narsalarni o’rganishlari mumkin. Mana shu “mumkin”dan o’ta jiddiy va og’ir tashvish kelib chiqadi. Nega deysizmi?

Ushbu filmlarda yovuz niyatni amalga oshirish uchun ovqatga zahar qo’shish, oilalarni buzish uchun

xiyonatkor kelin, tantiq ovsin, vaysaqi qo’shni, ochko’z quda va hokazolar.

Bunday rollarni ijro etmaslik kerak, demoqchi emasmiz. Badiiy asarda hayotning barcha qirralari namoyon bo’lishi zarur. Ammo, chinakam san’atkor bitta obraz ustida oylab ishlaydi, ter to’kadi, izlanadi. Serialda bo’lsa, ijraga olingan uyning eshigi ochilishi bilan hamma tayyor. Bunisiga nima deysiz?

Shu joyda ustoz yozuvchi Shuhratning bir gapiyodga tushadi: “Badiiy asarda, masalan, romanda, u garchi hayotda, jamiyatda mavjud kamchiliklar xususida bo’lsa ham, ijobiy qahramonlar salbiy qahramonlardan ko’p va ustun bo’lishi kerak”. Bugungi seriallarda ayni shu qat’iy shart ko’zga tashlanayotgani yo’q.

Tasavvur qiling. Teleekranda navbatdagi serial namoyish etilmoqda. Mo’may merosga ega bo’lish uchun qaynonasini zaharlayotgan kelinni ko’rib, turmushidan halovat topmayotgan, oilasi buzilish arafasiga kelib qolgan biror kelinchakning xayoliga nimalar kelmaydi, deysiz? Sodda yigitchalardan sovg’a tilla taqinchoq olayotgan mug’ombir qizlar, o’zining gulday oilasi qolib, boshqa joyda tunab qolayotgan kuyovlardan kim qanday “ibrat” oladi? Teleko’rsatuvni bir vaqtning o’zida bir necha million kishi tomosha qiladi, har million tomoshabindan atigi bittasining niyati buzilsa, qanchadan qancha yangi xiyonatkorlar paydo bo’lishi mumkin-ku?!

JAHON AYVONIDA

NEFT KOMPANIYALARIGA SANKSIYA

AQSH Moliya vazirligi Rossiyaning ikki yirik neft kompaniyasi – “Rosneft” va “Lukoil”ga nisbatan sanksiya joriy etishini e’lon qildi.



Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi (OFAC) Rossiya Ukraina-dagi urushni to’xtatish bo’yicha tashabbuslarni qabul qilmayotgani uchun cheklavlarga o’tganini bildirdi.

YILIGA MILLIONDAN ORTIQ QURBON

BMT har yili avtohalokatlarda qancha odam halok bo’layotganini ma’lum qildi.



Qayd etilishicha, dunyoda yiliga 1,2 million kishi YTH oqibatida hayotdan ko’z yumadi. Shuningdek, 50 millionga yaqin odam turli darajada tan jarohatlari olmoqda.

BMT bosh kotibi Antoniu Guterrish-ning ta’kidlashicha, hozir yo’l-transport halokatlari dunyodagi o’lim sabablari orasida sakkizinchi o’rinda turibdi.

PERUDA FAVQULODDA HOLAT



Peruda muvaqqat prezident lavozimini egallagan Xose Xeri poytaxt Lima va unga tutash bo’lgan Kallao portida 30 kunlik favqulodda holat joriy qildi. Bu haqda u davlat telekanalida xalqqa murojaat chog’ida ma’lum qilgan.

Favqulodda holat doirasida armiya ko’chalarga joylashtiriladi, yig’ilish va namoyishlar o’tkazish kabi ayrim fuqarolik erkinliklari cheklanadi. Bu Xerining prezidentlikni egallagandan beri

ASRIY ASAR

OZARBAYJONDA

1

Ikki yil oldin “O’tkan kunlar” romanining 1928-1929-yillarda o’zbek va ozarbayjon tillaridagi Xolid Said Xo’jayev tomonidan qilingan tarjimasini kitob holida qayta dunyo yuzini ko’rdi. O’zbekistonning Ozarbayjondagi elchixonasi nashr ishiga bosh-qosh bo’ldi. Ozarbayjonlik adabiyotshunoslari nashrga ko’maklashdi. Professor Olmos Ulvi Bennetova muharrirlik qildi, so’zboshi va o’ngso’z yozdi. Abdulla Qodiriy ijodi tadqiqotchisi, Olmos xonim shogirdi Shabnam Mirzazoda esa roman tilini zamanzodiy ozarbayjonchaga moslab nashrga hozirlabdi.

Ma’lumki, “O’tkan kunlar” romanini o’zbeklardan keyin dunyoda ilk bor o’z tilida ozarbayjon kitobxon o’qidi. Oradan salkam bir asr o’tib, ya’ni 2023-yili qayta bosilgan kitobning dizayni, ko’rinishi, bezaklari, muqovasi, qog’oz sifati – barcha-barchasi havas qiladigan darajada ko’rkam. Kitobga buyuk yozuvchimizning adabiy shaxsiyatiga ozarbayjonliklarning yuksak ehtiromi ramzi sifatida qarash o’rinli, albatta. Zotan, Abdulla Qodiriy va uning qahramonlarining ham ozarbayjon madaniyati va adabiyoti, xususan, Fuzuliy she’riyati-ga mehri baland edi.

Yozuvchi “Mehrobdan chayon” romanida Ra’no ta’lim-tahsilini ta’riflar ekan, unga bir qator mumtoz asarlar qatori Fuzuliyning devoni hamda “Layli va

jinoyatchilikka qarshi kurash borasida qo’l urgan ilk jiddiy chorasidir.

QO’S HQAVAT POYEZD

“Eurostar” temir yo’l kompaniyasi 2 milliard yevrolik yangi rejani e’lon qildi. Unga ko’ra, Buyuk Britaniya va Germaniyani bog’lovchi La-Mansh tunnelida ikki qavatli poyezdlar qatnovi yo’lga qo’yiladi.



Kompaniya 30 ta qo’shqavat poyezdga buyurtma bergan. Kelajakda yana 20 ta poyezd ishga tushirilishi rejalashtirilmoqda.

STUL O’G’RILARI

Ispaniya politsiyasi Madrid va Talavera de la Reina shaharlaridagi restoran, kafe va barlardan 1110 dan ortiq stul o’g’irlagan jinoyi guruh a’zolarini qo’lga oldi. Bu haqda “Euronews” xabar berdi.

Ular atigi ikki oy – avgust va sentyabrda 18 ta muassasani nishonga olgan. Politsiya ma’lumotlariga ko’ra, jinoyatchilar guruhi olti nafar erkak va bir ayoldan iborat bo’lib, ular tunda restoranlar yopilgach, tashqarida qolgan stullarni o’g’irlab ketgan.

WHATSAPP VA TELEGRAM CHEKLANADI



Rossiya aloqa, axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiyalar sohasidagi nazorat federal xizmati (Роскомнадзор) WhatsApp va Telegram messengerlarining ishini qisman cheklash choralarini ko’rmoqda. Bu haqda idoraga tayanib, “RBK” xabar berdi.

Nashrning yozishicha, mazkur messengerlar firibgarlik, tovlamachilik, shuningdek, Rossiya fuqarolarini diversiya va terrorchilik faoliyatlariga jalb etish uchun asosiy vositaga aylangan. Bu haqda idora huquqni muhofaza qiluvchi organlar ma’lumotlari hamda fuqarolarning shikoyatlariga asoslanib fikr bildirgan.

jarayon ko’plarni chinakam ijodkorlikdan chalg’itmoqda. Ma’naviy-ma’rifiy yig’inlarda bu xususta tanqidiy mulohazalar bildiriladi, matbuotda kuyunchak tahlillar yoziladi, ammo ular aytlgan, yozilgan joyda qolib ketayotgani g’oyat achinarli.

Bir misol, “Andijonoma” gazetasining shu yil 15-fevral sonida jurnalist Zilola Rahmonovaning “Botqoqqa botayotgan seriallar” sarlavhali tahliliy maqolasi e’lon qilindi. Shu maqoladan qisqa ko’chirma: “...milliy g’urur, milliy or-nomusni beshafqat bulg’ayotgan illatlardan biri, shubhasiz, teleekranlar orqali namoyish etilayotgan seriallardagi ma’naviyatsizlik, madaniyatsizlikdir... Bugun biz ularda qaynonaning razilligini, kelinning mug’ombirigini, erning xiyonati, akaning mehsrizligi, qayinsingilning hiylanayranglaridan boshqa yana nimalarni ko’rmoqdamiz? Pul uchun imonidan kechayotganlarni, o’z opasining eri bilan nikohdan o’tayotganlarni...”

Bugungi seriallarga nisbatan bildirilayotgan tanqidiy mulohazalar shulardangina iborat emas. Otasining ovqatiga zahar qo’shgan qiz, hamkasbi bemorni operatsiya qilayotganida, yovuz niyatda elektrni o’chirib qo’rgan xoin vrach, kelinni o’g’ri qilish uchun tilla taqinchoqlarini uning xonasiga olib kirib qo’yib, tuhmat qilgan qayinsingil, sevgisini rad etgan qizning boshiga ne-ne kulfatlar solgan yigit... Shu va boshqa ko’plab qabih niyatlarning hech biri seriali davomida ochilmaydi, makkorlarning qabih niyatlari fosh bo’lmaydi, aksincha, ular asar qahramonlari maqomida qolaveradilar.

Savol tug’iladi: kun sayin urchib borayotgan soxta seriallar o’zbek tomoshabinlari ong-shuuriga, yoshlar tarbiyasiga, umuman, ma’naviyatimizga, milliy

soxta suratlardan foydalanish, ota-ona oldida yarim yalang’och yurish, jazmanlarini oilaga bemaol taklif etish, ularni tez-tez almashtirib turish, qalbaki nikoh marosimi o’tkazish, oilaviy hujjatlarni o’g’irlash, soxtalashtirish, raqiblari uchun avtohalokat uyushtirish, “dushman” oilasi farzandlarini o’g’irlash, tibbiy tahlil natijalarini almashtirib qo’yish, ertalab uyqudan uyg’onib, yuviqsiz holda nonushta qilish kabi g’arbona “madaniyat” namunalari zo’r berib targ’ib qilinadi.

Xolis aytganda, xorijiy seriallar namoyinishining qoyil qoladigan bir muhim jihati bor, u ham bo’lsa, asar qahramonlariga ovoz beruvchilarning yuksak mahorati. Ovozni aslidan o’tkazib yuborishgan-e. Ammo bunga qoyil qolib bo’lmaydi. San’atkorning iste’dodi, noyob ovozi uning shaxsiy mulki emas, millatning noyob, fayzli boyligini San’atkor o’zining sahna umridan oqilona foydalanmasa, keyinchalik afsus qilishi turgan gap.

Jamiyatning ma’lum toifasini serial bilan band qilish telekanal uchun soxta reyting to’plashdan boshqa hech bir muammoni hal qilmaydi, aksincha, yangi-yangi muammolarning paydo bo’lishi va urchishiga olib keladi. Buni barchamiz ko’rib, bilib turibmiz. Ijod sahnasida hali o’zini to’la namoyon etishga ulgurmagani, bu yo’lda endi-endi tetapoya qilayotgan yosh aktyor va aktrisalarga seriallarda rol ijro etish balki qiziqarlidir, ammo suyaqi sahnada qotgan, el-yurtda obro’-e’tibor qozongan taniqli san’atkorlar pufak seriallarda suratga tushishni ijodlarining asosiy maqsadi qilib olganlari g’oyat taassufli.

Bizni tashvishga solayotgan holat shuki, xorijiy seriallarning behayo epizodlari asta-sekin milliy seriallarimizga surbetlarcha kirib kelmoqda. Hech kim



mentalitetga qanday ta’sir ko’rsatmoqda, teleasar yordamida jamiyatdagi qanday muammolarning yechimi topilmoqda? Ularda bag’rikeng, olijanob, mehmondo’sht, bolajon xalqimizning yuksak ma’naviy fazilatlarini nechog’li ko’rsatganmi? Nahotki, butun boshli mamlakatimizda er-xotin xushmuomala, farzandlari komil, kelinlari muloyim, qudalari andishali, mahallada obro’-e’tiborli bitta ham oila bo’lmasa?! Nahotki, hamma o’gay onalar, seriallarda ko’rsatilayotganidek, yosh norasidalarini yetimcha deb kamsitib, xo’rlayotgan bo’lsalar?

Bu savollarga javob berish oson emas, chunki har bir tomoshabin u yoki bu serialni shaxsiy dunyoqarashi, ma’naviy savodxonligi, ziyoliligi darajasidan kelib chiqib ko’radi. Chuchmal va soxtaligi bilan kinningdir asabini o’ynatgan bir serial boshqa bir tomoshabinni chunonam yig’latadiki, qozonda qaynayotgan kechki ovqat kuyib, uy ichini kuyidni hidi bosib ketsa, farzandlari o’qishdan qaytishsa ham sezmaydi.

Ota-onasini hurmat qilgan yoshlar ularni ranjitmaslik uchun boshqa kanalda o’zlari uchun zarur bo’lgan axborotni tinglash imkoniyatidan mahrum bo’ladilar. Qisqa aytganda, juda ko’p qimmatli vaqt behuda ketadi, bu isrofdan boshqa narsa emas.


Xorijiy seriallarda behayo kashdlar shu qadar ko’pki, ularni oila davrasida ko’rish mushkul. Bundan ham

mushuklarini “pisht” demayotgan ssenariy mualliflari bu holatdan ilhomlanib, ko’z ko’rib, quloq eshitmagan yangi-yangi epizodlarni o’ylab topmoqdalar.

Chunonchi, endilikda seriallarda kelin yoki kuyonchning qarindoshlarini o’g’irlab ketish, garovga olish, qurolli hujum uyushtirish, yosh kelinning erkak kishi peshonasiga to’pponcha tirashi, yuqoriga qarab o’q uzishi, raqib tomonning mol-mulkiga o’t qo’yish, bu ishda sotqinlar xizmatidan foydalanish, murdani yashirish, jinoyatni yopishda o’g’irlar olami “qonun”laridan foydalanish hollari ko’payayotir.

Serialni boshlab qo’yib, uni qanday yakunlashni bilmay garangsirash holatlari ham mavjud.

Bir aktrisa kunduzi namoyish etiladigan serialda mahallada obro’li, ko’pni ko’rgan oqila ayol rolda chiqsa, kechqurun boshqa bir serialda buning mutlaqo aksini ko’ramiz: yovuz qaynona, hiylakor ma’shuqa,



“

Bu qorong’i dunyoda faqat ma’naviy boylikni haqiqat deb hisoblang, chunki u hech qachon o’z qiymatini yo’qotmaydi.

Umar HAYYOM

”



MILLAT FIDOYLARI

O‘zining kurashchan g‘oyalari, amali-yu a‘moli bilan o‘zgalarga o‘rnak-namuna bo‘lgan, har jabhada xalqqa ma‘rifat ulashgan: yangi maktablar ochgan, gazeta-jurnallar tashkil qilgan, millatni uyg‘otish va birlashtirish uchun jon koyitgan jadid harakati tarixida Zayniddin qori Nasriddinovning nomi ham alohida o‘rin tutadi.

Zayniddin qori Nasriddin o‘g‘li (Nasridinov) 1872-yili Namangan shahrida dunyoga kelgan. Otasi Nasriddin qori o‘z davrining obro‘li ulamolaridan bo‘lib, avval muftiy, so‘ng qozi vazifalarida faoliyat yuritgan. U o‘zining adolatli qarorlari, ilmga munosabati bilan e‘tibor qozongan. Bunday sog‘lom muhitda unib-o‘sgan to‘rt farzand – Zayniddin, Bahriddin, Najmiddin va Fazliddinning tiynatlarida bolalikdanoq bilimga tashnalik, ma‘rifatga oshnolik zohir bo‘lgan.

Zayniddin qorining shaxsiy dunyoqarashi va ilmga intilishida bolalik do‘sti Nosirxonto‘ra Kamolxonto‘ra bilan yaqin munosabati ham muhim o‘rin tutadi. Ikkalasi bir masjidda saboq olgan, Qur‘on o‘qish va ilm yo‘lida birga sa‘y qilganlar. Bu do‘stlik keyinchalik ularning ma‘rifatparvarlik yo‘lidagi harakatlarida yanada mustahkamlangan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda kechgan yangi zamon harakatlardan Zayniddin qori ham chetda qolmadi. U namanganlik ziyolilar davrasiga qo‘shilib, islohotlar zaruriyatini tobora his qilar ekan, o‘sha yillarda turli ma‘rifiy yig‘inlarda o‘zining ta‘sirchan nutq va ma‘ruzalari bilan el nazariga tushdi.

Ilmiy-ma‘rifiy muhitda to‘plangan tajriba Zayniddin qorini keyinchalik jadid harakatining yetakchi arboblardan biri sifatida maydonga olib chiqdi. 1914-yilda u Namanganda tashkil etilgan “Jamiyati Islomiy” raisi sifatida tanildi. 1915-1916-yillarda Namanganda jadidlik maktabini ochib, unga mudirlik qildi.

1917-yilda Fevral inqilobidan keyin yuzaga kelgan yangi siyosiy muhit mahalliy aholi orasida ishonchli va tajribali shaxslarga ehtiyojni ortirdi. Ana shu paytda Zayniddin qorining ham ma‘rifat maydonidagi tashabbuslari, ham otameros tajribasi uning qozi etib tayinlanishida turkki bo‘ldi.

E‘tiborli jihati shundaki, Zayniddin qoriga turli tashkilotlarda, turli o‘rinlarda doim yetakchilik vazifasi topshirilgan. Nega? Aslida, o‘sha davrda ziyolilar orasida salohiyatli va nufuzli shaxslar kam emasdi. Lekin jamoani o‘z ortidan ergashtirish, fikrni g‘oyaga aylantirish borasida qahramonimiz favqulodda xislat sohibi bo‘lgan yirik shaxs edi. Shu bois ham, u qaysi tashkilotda faoliyat yuritmasin, yetakchilik mas‘uliyati zimmasiga tushar edi.

1919-yili taniqli taraqqiyparvar, tergovlarda o‘ziga qo‘yilgan bo‘htonlarni “Men harbiy

emas, jadidman” deya keskir rad eta olgan qat‘iyat egasi, butun umr jadid bo‘lib, xalqqa ilm-ma‘rifat tarqatgan Abdullabek Musabekov tashabbusi bilan “Ittihad va taraqqiy” tashkilotining Namangan sho‘basi tuziladi va unga rais sifatida Zayniddin qori saylanadi. Tashkilot kotibi Fayzulla Usmonov, g‘aznachisi Asror Zayniddinov bo‘lib, Mulla Hojibobo Muhammadrizayev, Abdulla hoji G‘afurov, Qori Otaboyev, Usmon Akromiy, Jamol Sa‘diy, Shahar Sharif kabi ziyolilar ham uning safidan joy oladilar. Keyinchalik “Ittihad va taraqqiy” Munavvar qori Abdurashidxonov



Namangan shahri, Said Qulibek madrasasi, 1920-yillar.

tashabbusi bilan “Milliy ittihad” nomi ostida qayta tashkil etiladi, ammo Namangan sho‘basining tarkibi o‘zgarishsiz qoladi.

Shu tariqa, Zayniddin qorining nufuzi mahalliy ziyolilar orasidagina emas, butun Turkiston miqyosida ortib boradi, bu e‘tirof 1920-yilda yuz bergan muhim siyosiy voqealarda ham o‘z ifodasini topadi.

1920-yil 1–10-sentyabr kunlari Boku shahrida Sharq xalqlarining birinchi syezdi chaqirildi. Bu yig‘ilish turli millat vakillarini birlashtirib, mustamlakachilikka qarshi kurash yo‘llarini muhokama qilishga qaratilgan edi. Syezdda yurtimizdan bir qator vakillar qatorida Zayniddin qori ham ishtirok etadi. Uning ma‘ruzasi zamondoshlarida katta qiziqish uyg‘otgan nutqlardan biri sifatida qayd etiladi. Zayniddin qori Anvar poshoning chiqishini yuqori baholab, Sharq xalqlari uchun Turkiya va Misr tajribasi kabi milliy respublika tuzish zarurligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, tatar ulamolari

Muso hazrat, Ziyo Kamol hazrat va Jahongir hazratlarni islom dini va xalq ozodligi uchun jonfido shaxslar sifatida e‘tirof etadi. Ana shu fikrlarining o‘ziyoq uning nazari zamonasining ilg‘or siyosiy qarashlari bilan uyg‘un va hamohang ekanini ko‘rsatardi.

Milliy-hududiy chegaralanishdan so‘ng, Turkistonning siyosiy va ma‘muriy tuzilishida katta o‘zgarishlar yuz beradi. Bu o‘zgarishlar, turgan gapki, jamiyatda yetakchi shaxslarga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshiradi. Qahramonimiz esa bu paytda o‘zining ma‘rifatparvarlik ishlari bilan shuhrat

mustaqillikni talab qilishdan iborat edi. Uning rahbari etib Zayniddin qori saylanadi.

Qisqa fursat ichida “Milliy qo‘mita”ning ta‘siri Namangandan tashqarida ham sezilib, Andijon, Kosonsoy va Qo‘qon shaharlarida uning sho‘balari ish boshlaydi.

Tashkilot faoliyati haqida Abdullabek Musabekov quyidagilarni ma‘lum qilgan: “Men 1929-yil boshlarida Namanganga keldim. Bu yerda Fathiddin Maxzum Ismatul-layev xonasida Zayniddin qori, Fathiddin Maxzum, Mulla G‘aybullayev va yana kim bilandir uchrashdim. Zayniddin qori bilan cho‘y ichib o‘tirganimizda, u menga shunday degan: “Biz yangi tashkilotni yaratdik, aniqrog‘i, eski tashkilotni yangiladik”. Mening “kim bu tashkilotga a‘zo bo‘lib kirgan”, degan savolimga ular hazilomuz tarzda “shu yerda o‘tirgan barchamiz”, deb javob berdilar. Hamma kulib yubordi. Zayniddin qori menga tashkilotga a‘zo ekanligimni aytdi. Men unga “albatta” deb javob berdim. Keyin Zayniddin qori menga quyidagilarni aytdi: “Siz hozirda siyosatdan yiroq holatda yashamoqdasiz, gazetalarda nimalar yozilayotganini bilmaysiz, ko‘rinib turibdiki, hozirgi kunda davlat rahbarlari o‘rtasida katta kurash va kelishmovchiliklar sodir bo‘lmoqda. Agar yana to‘ntarish sodir bo‘lsa va hokimiyat tepasiga trotskiychilar kelsa hamda urush boshlanib ketsa, biz nima qilmoq‘imiz darkor? Biz aholi orasida jadid sifatida sharmanda qilinganmiz, hukumat bizning mafkuramizni buzg‘unchi deb hisoblab bizlarni millatchilikda ayblamoqda. Agar biz betaraf holatda qolishda davom etsak, kun kelib jabrlanganlar qatorida qolib ketamiz. Shunday ekan, biz uyushishga va tashkilot tuzishga qaror qildik. Hozirda esa voqealar rivojini sinchkovlik bilan kuzatmoqdamiz”.

“Milliy qo‘mita” tashkilotiga a‘zo bo‘lib kirish shartlari haqidagi hujjatda Zayniddin qori talabgorning rostdog‘i, vatanparvar, millatparvar, jasur va qo‘rqmas, mohir targ‘i-botchi, tashkilotchi xususiyatlariga ega bo‘lishi kerakligini alohida qayd etgan. Tashkilot a‘zolari aholi orasida davlat apparati boshqaruvini mahalliyashtirishni, buning uchun o‘zbek aholisini zamonaviy bilimlar bilan o‘qitishni yo‘lga qo‘yishni targ‘ib qilishi lozimligi belgilangan. Temir yo‘l, pochta va telegraf kabi muhim sohalar o‘zbek ishchilari tomonidan boshqarilishi zarurligi alohida ta‘kidlangan.

Zayniddin qori o‘z ma‘ruzalarida sovet hokimiyati atayin savodsiz aholini davlat xizmatiga qabul qilayotgani, ayni vaqtda eski davrning keng dunyoqarashga ega ziyoli aholisi vakillari ishdan bo‘shatilgani yoki davlat xizmatiga yaqinlashtirilmayotganini aytadi. Shu bilan birga, ayollar paranjisini

tashlashga majbur qilinayotgan “Hujum” harakati ayni vaqtda mutlaqo noo‘rinligi, jarayonning majburiy asosda amalga oshirilayotganini keskin tanqid qiladi.

1928-yili Zayniddin qori Toshkentga borib, yetakchi ma‘rifatparvarlar – Munavvar qori Abdurashidxonov va Salimxon Tillaxonov bilan yaqin aloqa o‘rnatadi. Shu orqali Namanganda tuzilgan “Milliy qo‘mita” “Milliy istiqlol” tashkilotining mahalliy sho‘basi sifatida taniladi. Bu bog‘lanish uning faoliyatini yanada kengaytirib, o‘z harakatini markaziy yo‘nalish bilan uyg‘unlashtiradi. Biroq vaziyat uzoq davom etmaydi. 1929-yil 6-noyabrda Munavvar qori Abdurashidxonov hibsga olingach, uning hamkorlari va “Milliy qo‘mita” rahbarlari ham qatag‘onga duchor bo‘ladi. Oradan ko‘p o‘tmay, 1929-yil 18-iyunda Zayniddin qori o‘z uyida oilasi bilan dasturxon atrofida o‘tirgan paytda OGPU xodimlari tomonidan hibsga olinadi.

U 1930-yil 7-yanvarga qadar muttasil tergov ostida saqlanadi. Zayniddin qori Nasriddinovga qarshi tayyorlangan ayblov xulosasida unga bir qator og‘ir da‘volar qo‘yilgan. U “sovetlarga qarshi millatchilik harakatini olib borgan”, deb ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, “Milliy istiqlol” tashkiloti rahbarlari bilan aloqada bo‘lgani, ularning dasturini qabul qilgani va ulardan kurashga rahbarlik qilishni so‘ragani qayd etiladi. Ayblovlar orasida go‘yo u xorij bilan aloqalar o‘rnatish uchun vakillar yuborgan, qurolli qo‘zg‘olon tayyorlashga da‘vat etgan, bosmachilar bilan hamkorlik qilgan, hatto “Qizil armiyaga qarshi to‘qnashuvda ishtirok etgan Dadaboy qo‘rboshining qarorgohida bo‘lgan”, degan vajlar ham keltiriladi.

1931-yil 25-aprelda Moskvadagi OGPU Kollegiyasining navbatdagi “yig‘ilish”ida Zayniddin qori ustidan hukm chiqariladi. U RSFSR Jinoyat kodeksining 58-2, 58-3, 58-4 va 58-10-moddalari asosida aybdor deb topilib, otuvga mahkum etiladi. Bir oy o‘tar-o‘tmay hukm ijro etiladi.

Zayniddin qori Nasriddinovning hayoti fojiaiy tarzda shunday yakun topdi. Tugadi emas, ehtimolki, uning ikkinchi umri shu yerdan boshlandi. Millat manfaatini har nedan ustun qo‘yadigan inson chin yetakchi bo‘lib tarixda qoldi. Uning nomi 1989-yilga kelib rasman oqlangan. Mohiyatan esa, chinakam oqlov bugungi avlodning qahramonimizni yaqindan tanishi, uning ma‘rifat yo‘lidagi zahmatlarini anglashi va bizga qoldirgan merosidan munosib saboq ola bilishidadir.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

“O‘TKAN KUNLAR”

nomli so‘zboshida “Ozarbayjon tiliga bu asarning tarjima etilishi va yangi alifboda (lotin yozuvi nazarda tutiladi – B.K.) nashr qilinishi shu kunga dovur o‘zbek adabiyotida hali ko‘rilmagan yangi bir davmi ochib beradi”, degan fikrni bildiradi. Shuningdek, ijodiy metod masalasida romanning realistik ekaniga, “realistik adabiy jarayon o‘zbek adabiyotiga bu asar orqali kirib kelgan”iga urg‘u beradi.

Romanni Ozarbayjon bilan bog‘laydigan yana bir muhim ma‘lumot bor. 1929-yildan O‘zbekistonda lotin alifbosi qo‘llana boshlagadi. Bu jarayon Ozarbayjonda biroz ilgari, ya‘ni 1926-yili boshlangani uchun matbaa sohasida ularning texnik imkoniyatlari yaxshi bo‘lgan, nazarinmiza. Shu bois, O‘zbekistonda bosiladigan ba‘zi kitoblar 30-yillarda Boku bosmaxonalarida chop etilgan.

“O‘tkan kunlar”ning o‘zbek tilidagi ikkinchi nashri 1933-yilda lotin imlosida Bokuda nashr bo‘ladi (romanning birinchi nashri 1925-1926-yillarda arab imlosi – o‘zbek mumtoz yozuvida har uch bo‘limi alohida kitob holida nashr qilingan). Kitobning iych muqovasiga “Toshkent–Boku” deb yozilgan. Keyingi sahifasida “Mas‘ul chiqaruvchi: M.Rafiqif. Обложка: Iskandarniki”, “Qizil sharq” matbaasi. Boku shahri, Qarantinniy ko‘chasi – 84-uy. Bosh Matbuot mudirligi 3592. Sifarish – 3964. Tiraji – 13 000 nusxa”, degan yozuvlar bor. Shundan keyin: “Bosmaxonaga berildi: 5/VI–33-yil. Bosishga ruxsat etildi: 27/IX–33-yil”. Bosishga ruxsat etildi: 27/IX–33-yil”, degan yozuvlar lotin imlosida yozilgan. Keyingi sahifada adib rasmi berilib, tagiga

“Abdulla Qodiriy (Julqunboy)” deb yozib qo‘yilgan. Navbatdagi sahifadan roman matni boshlanadi. Jami 462 bet. Oxirgi sahifada yozuvchining “So‘ngso‘z”i bor.

Ayni ma‘lumotlar ortidan XX asr 30-yillar o‘zbek matbaa tarixini ozarbayjon madaniy muhiti bilan uyg‘un tadqiq etish lozim, degan bir masala o‘rtaga chiqadi. Buning ijrosi mashaqqatli: arxiv manbalarini titkilash, chang yutib izlanish kerak.

3

Asli o‘zbekistonlik, Bokuda faoliyat olib borgan ma‘rifatparvar tarjimon Xolid Said Xo‘jayev va u bilan birga roman muharriri Hanafiy Zaynalli sho‘rolarning siyosiy tuhmatiga uchragan. Qatag‘on etilgan. “O‘tkan kunlar”ni o‘qish xuddi O‘zbekistonda bo‘lganidek Ozarbayjonda ham taqiqlangan. Muhtasham roman, iste‘dodi adib, birinchi tarjimon, asar tarjimasi hamda muharrirlari qismatdosh edi...

2023-yilda qayta bosilgan kitobning yangi nashrini sinchiklab o‘qish zarurati bor. Chunki roman matnining birinchi jumlasida kichik xatolik o‘tibdi. Ya‘ni, “Yusufbek hoji o‘g‘li Atabey” sarlavhasi uchun berilgan: “Sho‘ro bayrog‘i – SSSR (1922–1991) bayrog‘i nazarda tutulur”, degan izohning sarlavhaga aloqasi yo‘q. Bu so‘zboshida kelgan “sho‘ro bayrog‘i ostida yashagan” jumlasiga tegishli. Mas‘ullar mehnatini kamsitmaganda holda, bu juz‘iy texnik nuqsonni o‘nglash lozim.

Romanning birinchi jumlasini ham hamma yaxshi biladi: “1264-nchi hijriya, dalv oyining 17-nchisi, qishqi kunlarning



biri, quyosh botgan, tevarakdan shom azoni eshitiladi”. Ammo yangi nashr: “Hijriy taqvimning 1964-chi yilning fevral oyining 17-si”, degan gap bilan boshlanibdi. “1964” sanasini “1264”ga o‘zgartirish, kitobning navbatdagi nashrlarida bu xatolarni o‘nglash lozim. Oqil va dono ozarbayjon o‘quvchisi hayrat barmog‘ini tishlab qolmasin, deymiz.

4

Darvoqe, teatrdan “O‘tkan kunlar”ning sahna talqinini ko‘rgan edim. Bir nuqta men uchun qiziq edi. Marg‘ilondan kelgan qudalarni kutib olish sahnasidagi Yusufbek hoji gapiga uns berdim va rejissyorga Hojining nutqida shu bitta “ham” yuklamasi tushib qolganini aytdim. Gapimni u mamnuniyat bilan to‘g‘ri qabul qildi. Aynan o‘zim uchun qiziq bo‘lgan shu epizodni tarjima nusxadan izladim. Topdim. Qo‘limga olgan 1929-yilgi nashrning “7. Qudalar qarshilani”

fasli oxiriga – 45-betga (qayta nashrda 315-bet) qaradim. Ammo Yusufbek hojining o‘sha mashhur va barchaga yod bo‘lib ketgan: “Bizning Mar‘ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurg‘an ekanmiz-da”, degan go‘zal jumlasini hojining duosi o‘z vaqtida tarjimada berilmagan ekan.

Boshqa sahifalardagi ba‘zi jumla-larga yana e‘tibor berdim. Deylik: “Siz o‘shami?” – “Siz...”, “Ko‘nglingiz farishta-lar ko‘nglidek” – “Shunday go‘zal yurakka sohibsiziki”, “Fuzuliy yaxshi kitob” – “Fuzuliy devoni juda yaxshi kitobdir”. Menimcha, o‘zbek tilidagi asiyat bilan keyingi tarjimani shu zayl taqqoslash, ayrim o‘rinli fikrlarni o‘rtaga tashlash foydali bo‘lsa kerak.

Roman “Xotima”siga nazar soldim. Tarjimada “Yusufbek hojiga bir maktub kelmishdi” tarzida o‘g‘irilgan jumlada “Qanoatsho” nomi berilmabdi va kim ekani aytilmagan maktub egasining



Avliyootadan yozgan xati bilan tugaydi. Keyin “Yozuvchidan” epilogi beriladi. Holbuki, “O‘tkan kunlar” romanining “Xotima”si ayni xatdan keyin kelgan “Yusufbek hoji xatmi Qur‘on qilib yurtka osh berdi, O‘zbek oyim qora kiyib ta‘ziya ochdi. Bitti”, degan yozuvchining juda muhim jumlasini bilan tuganchiga yetadi. Keyin, tabiiy ravishda Otabekning o‘g‘li Yodgorbek va uning ikki farzandi to‘g‘risidagi epilog keladi.

Men ayrim taqqoslarni aytdim. Niyatim tanqid emas, balki takomildir. Ehtimol, kundan kun qizillashib borayotgan 30-yillar muhitidagi siyosat Hojining duosi yoki “xatmi Qur‘on” uchun mone‘lik qilgandir... Ammo gapim inkoriga ishlaydigan dalillar bo‘lishi ham mumkin.

5

Tarjimon Xolid Said Xo‘jayev so‘zboshida romandagi o‘zi ortiqcha sanagan ba‘zi o‘rinlarga to‘xtalib: “Ozarbayjonchaga tarjima qilishda bunday o‘rinlar imkon boricha qisqartirildi, asar mohir qalam bilan yozilgan bir roman shakliga solinmishdir”, deb o‘z tahriridan mamnun bo‘ladi. Qisqartirilgan o‘rinlar, agar davr adabiy siyosatiga aloqasiz bo‘lsa, tabiiyki, tarjimonning adabiy-estetik didi, romanni tushinishi bilan bog‘liq. Mulohaza qilib ko‘rilsa, “O‘tkan kunlar”da qisqartirish kerak bo‘lgan o‘rinlar sezilmaydi. Romanning yuz yillik umri ham shuni ko‘rsatadi.

Ikki millat olimlari birgalikda o‘rganib, tadqiq qilishi zarur bo‘lgan bir qancha adabiy mavzular xayolmendan ketmadi. Shunga mos xulosalar yuzaga keldi. Birinchidan, “O‘tkan kunlar” romanining qayta nashrini qutlab, kitobning shakli, nashr sifati, ish boshida turganlarning mehr-muhabbatiga tahsin aytmoq lozim. Ikkinchidan, ikki karra ozarbayjon tiliga tarjima qilingan, bir necha bor bosilgan “O‘tkan kunlar” romani matnini o‘zbek tilidagi nisbatan mukammal nashrlar bilan qiyosiy o‘rganib, asarni ozarbayjon o‘quvchilariga qayta taqdim etish zarurati yo‘q emas. Aslida, o‘zbek tilidagi matnni ham “Inqilob” jurnalidagi bir qism (1923-yil) hamda 1925-1926 va 1933-yilgi nashrlar asosida takomillashtirish zarur.

Shuningdek, yuqorida ta‘kidlanga-nidek, o‘tgan asrning 30-yillarida lotin imlosida nashr bo‘lgan bir qancha kitoblarimizning qismati Boku matbaasi bilan bog‘liq. Noshirlik, matbaa tarixidagi bu sahifa ham tadqiqqa munosibdir. Va nihoyat, o‘zbek–ozarbayjon adabiy-madaniy aloqalarining ayrim sahifalari, xususan, jadidlarga doir masalalar ikki millat olimlarining o‘zaro hamkorligida jiddiy va haqoniy, teran va tizimli o‘rganib chiqilsa, tabiiyki, moziy – o‘tgan kunlar ko‘zgusida aks etgan tarix manzarasi yanada tiniq bo‘ladi.

Bahodir KARIM,
professor



SAN'AT OLAMI

– Avaz aka, Sizni sahnaga taklif qilishganda “soʻz ustasi” deb alohida eʼtirof etishadi. Buning oʻziga yarasha masʼuliyati bor. Shu bois, gapni kulgi sanʼatida, umuman, bugungi oʻzbek sanʼatida davlat tiliga boʻlgan munosabatdan boshlasak.

– Rahmat. Jiddiy nashrlarning savollari ham zalvorli boʻladi.

Tilga hurmat bilan yondashish haqida gap ketganda, bir voqea yodimga tushadi. 20 yilcha boʻldi bunga. “Oʻzbekiston” telekanalining “Assalom, Oʻzbekiston!” koʻrsatuvi uchun yangi latifalarimni yozib olishdi. Ammo efirga uzatilmadi. Bir kuni televideniyeга borib, koʻrsatuv bosh muharriri oldiga kirdim. Ziyoli ijodkor muddaomni eshitib: “Latifalaringiz zoʻr! Faqat “man” deb gapiribsiz. Endi “men” deb boshqatdan aytib berasiz, efirga ketadi”, dedi. Qarang, bittagina harf. Lekin shunga ham eʼtibor berilgan, sof adabiy tildagi chiqishlar talab qilingan. Bu menga katta saboq boʻlgan.

Soʻz ustasi degan sifatga eʼtibor berdingiz. Mirzo Bedilidan bir bayt xayolimdand oʻtdi: “Poydevorni qiyshiq qoʻyarkan meʼmor, Yulduzga yetsa ham qiyshiqdir devor”. Nafaqat, birinchi gʻisht, balki bitta gʻisht oʻrniga tushmasa ham bino yaroqsiz holga keladi. Xuddi shunday, soʻz bilan ishlaydiganlar ham har bir soʻz, har bir tovushga eʼtibori boʻlishi kerak.

“Jadid” gazetasi yoz oyidagi sonlaridan birida yozuvchi Nazar Eshonqul yaxshi gap aytgandi: “Unutmaslik kerak, televideniye – adabiy til maktabi. Bu yerda soʻz, talaffuz, ifoda tarzi qatʼiy qoidalarga asoslangan boʻlishi shart. Boshlovchi shevon boʻlsa, yosh avlod uni shunday qabul qiladi”. Bugun nima boʻlyapti? Telekanallarimizda boshlovchi ham, suhbatdosh ham xohlagan shevada gapiryapti, xohlagan ajnabi soʻzni qoʻllayapti. Qoʻyib bersa, “koʻcha tili” iboralarini ham beti qizarmay ishlatyapti. Bu yogʻi endi “tabibimning oʻzi ham bemor” qabilida.

Nega shunday boʻlyapti? Chunki telejurnalistlar, artistlar, qiziqchilar badiiy adabiyotdan, sheʼriyatdan uzoqlashib ketyapti. Soʻz boyligini sheʼr oʻqish hamda yodlashdan koʻra tez va oson oshiradigan vosita bormi? Chiroyli gap bor: “Biz yashab turgan olam ichida yana bir olam bor, bu sheʼriyat olamidir”. Sheʼriyatga sevgim shunchalik, oila davrasida bahri baytlar oʻtkazamiz. Turmush oʻrtogʻim, farzandlarimga Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va ularning shogirdlaridan sheʼrlar oʻqib beraman. Yoddan soatlab sheʼr aytishim mumkin. Maqtanish emas, buyam ijodiy mehnatning bir qismi. Satrlar ichida shunaqa hazil, istehzo, qochirim, kinoyalar chiqib qoladiki, yetti uxlab tushga kirmagan topilmalar boʻladi.

– Konsentrlaringizda ham zamonaviy estrada namunalaridagi matn sayozligini kulgi ostiga olgan edingiz...

– Baʼzida “Qaysi qoʻshiqchini yaxshi koʻrasiz?” deb soʻrashadi. Qoʻshiqchini emas, qoʻshiqni yaxshi koʻraman. Qoʻshiqning magʻzi esa – soʻz. Soʻzni qadrlamagan, sheʼrning

JIDDIIY KULGI

Taniqli soʻz ustasi, “Shuhrat” medali sohibi
Avaz OXUN bilan suhbat



farqiga bormaydiganlar aytgan qoʻshiqni eshitmayman. Balki shuning uchun ham hozirgi koʻp qoʻshiqlar tez esdan chiqib ketayotgandir. Axir, soʻzini eslab qolmasangiz, nimasini xirgoyi qilasiz? Bugun yosh uka-singillarimizda maʼnoli sheʼrni kuyga solib ommalashish qiyin, degan tushuncha bor. Bu – xato! Uzoqqa bormaylik, Oxunjon Madaliyev, Muhriddin Xoliqov, Yulduz Usmonova, Sevara Nazaron kabi yulduzlarimiz professional shoirarning sheʼrlarini kuylab nom qozongan-ku. Hanuz eshitaypmiz, bundan keyin ham eshiti-shadi.

– Suhbatni Sizga bevosita bogʻliq mavzuda davom ettirsak. Tilimiz boyligini oʻzida aks ettirgan va sanʼatkordan katta soʻz zaxirasini talab qiladigan sanʼatlardan biri – askiya. Hozirgi kunda askiya sanʼati nima uchun yoʻqolib ketyapti?

– Bu eng ogʻirliq nuqtamiz. Hatto, oʻzbek sanʼati tor qoliplarga solingan davrlarda ham Yusufjon qiziq, Oxunjon qiziq, Mirshoid Miroqilov, Muhiddin Darveshov kabi sanʼatkorlar askiya sanʼatini saqlab qolgan, rivojlantirgan. Bugun endi Abdulla aka, Hotam akalardan keyin bir zakiy, soʻzga mohir askiyachini koʻrmayapman. Borlari ham oʻz ustida ishlamayapti. Nimaga? Chunki tomoshabin masxara kulgiga oʻrganib boʻldi. Unda mantiq boʻlsa, qani. “Prikol” deb qoʻyishadi. Bu kimningdir shaxsiyatiga tegish, kamsitish, beldan pastni moʻljalga olishdan boshqa narsa emas.

Eng katta fojia esa haqiqiy satira yoʻqolib ketyapti. Yoshlardan tuzilgan ayrim guruhlar, jamoalar Internetda tarqalgan bachkana qiliq yoʻ biron muammoni tagiga yetmay sahnaga olib chiqyapti. Sharmanda boʻlgan odamni qayta eslatib, shuni qiziqchilik, deb oʻylaydi. Bir konsertga tushdim. Qotib kulyapti yonimdagilar. Men esa nima uchun kulish kerakligini tushunolmadim. “Nimaga kulyapsan, odamlar nimaga kulyapti?” desam, “Instagramda chiqqan-ku, mana bu”, deydi.

Har narsada meʼyor borligini unutmaylik. Ustoz sanʼatkor Hojiboy Tojiboyevning chiqishlarini koʻring, oʻz davrining eng oʻtkir muammolari haqida gapirgan, har bir gapining yuki boʻlgan. Lekin hech kimni yerga urmagan. Jiddiy narsa haqida gapirib ham odamlarni kuldigan. Shu orqali jamiyatdagi dardlarga davo izlagan. Buni mahorat deydlar.

– Siz ham ustozlaringizdan qolishmaysiz, Sizni koʻrgan yurt-

doshlarimiz yuzida tabassum paydo boʻladi. Baʼzan odamlar qiziqchi ham oddiy inson, uning ham oʻz hayoti, tashvishlari, ichki dunyosi borligini unutib qoʻyadi. Har doim va har joyda “Yangisidan bormi?” deb soʻrashadi. Shunday holatlarda qanday yoʻl tutasiz?

– Qoʻshiqchilar bitta qoʻshigʻini oʻn yil ham aytib yuraveradi. Shoirlar ham shunday: muxlislar sevgan sheʼrini qayta-qayta oʻqiyveradi. Teatr aktyorlari bir rolni yillab ijro qilishi mumkin. Lekin qiziqchi bir latifani ikki marta aytasa, taʼsiri yoʻqoladi. Shuning uchun qiziqchi doimiy izlanish va mehnatda boʻlishi kerak. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan paytda konsertga yetib bormay davralarda aytgan hangomalar tarqalib ketadi. Keyin oʻsha bilan toʻrt mingdan oshiq odamni kuldrib koʻring-chil!

Endi, odamlar orasida yursangiz, har xil vaziyatga duch kelasiz. Masalan, shifoxonaga borasiz yo yaqinlaringizni olib borasiz. Boshda ming oʻy-xayol, yuzingiz tund, koʻzingiz oʻychan boʻladi. Shu holatdayam sizdan tabassum kutadi odamlar. “Nimaga xoʻmrayib yuribsiz?” dedi bir kuni bir ayol. “Shifoxonada tirjayib yursam qanday boʻladi?” dedim men ham imkon qadar muloyimlik bilan. “Sizning xoʻmrayib yurishingizni qabul qila olmaymiz. Kulib yurishingizga oʻrganib qolganmiz”, deydi boʻsh kelmay. Mayli, hammamiz kulib yuraylik, deb ketdim. Odam degani hamishabahor guli emas-ku!

– Oʻzingizga chetdan qaraganda, aql odamimizisiz yo koʻngil kishisi? Sanʼatdan tashqarida qanday inson-man deb oʻylasiz?

– Sahnada vazifamni bajarib boʻlgandan keyin sanʼatkorning kiyimini yechib, oddiy odam kiyimini kiyaman. Bizga shunaqa oʻrgatishgan: “Sen ilgichdan kostyumni olib kiysang, artistga aylanasan. Chiqdingmi, buni ilib yoʻgʻin-da, bu yerda yana oddiy inson boʻlib yashagin. Hayotda artistlik ketmaydi”.

Aqlmi, koʻngilmi, desangiz, aqlga koʻproq tayanaman. Koʻngilga ham quloq solaman, lekin nazorat doim aql jilovida boʻladi. Soham shuni taqozo etadi. Axir, soʻz haqidagi maqollarning asosi qismida aqlga boʻysunish tar-gʻib etilgan-ku. Umuman, aqlga, ilmga, maʼrifatga asoslanmagan hayotning ham, ijodning ham tagi puch.

– Maʼrifat haqida soʻz borganda, jadid bobolarimizni eslamaslik mumkin emas. Jadidlar, ularning faoliyati bilan qanchalik tanishsiz?

Sanʼatkorga nima beradi jadidlar merosi?

– Nafaqat, ilm-fan, milliy sanʼat haqida gapirganda ham jadidlarni eslamaslik gunoh. Ular oʻzbek milliy teatriga asos soldi, “Mushtum” jurnalini chiqardi. Oʻtkir qalami bilan hajviyalar, feletonlar, komediyalar, satira va yumorga yoʻgʻrilgan asarlar yaratdi. Kelgusi soʻz ustalari, qiziqchilar uchun katta maktab qoldirib ketdi. Hamma gap shundaki, biz bu tajribalardan foydalana olyapmizmi, yoʻqmi? “Xalqlar doʻstligi” saroyida konsert berish yoki instagramda yuz minglab obunachi yigʻish bilan hech kim qiziqchi boʻlib qolmaydi. Hatto, odamlar gapingizga, qilgʻingizga kulsa ham, soʻz ustasiga aylanib qolmaysiz. Odamlar ahmoqlarning ishiga ham kuladi, toʻtining talaffuziga ham kuladi. Kuldirish bilan kuldirishning farqi bor.

Bu narsalar bevosita dramaturgiyaga borib taqaladi. Vayn degani yangilik emas, oʻzimizning televizion miniatyuralar teatrlarining yangi chopon kiygan shakli. Faqat miniatyuralarda dramaturg, rejissyor va aktyor hamji-hatlikda ishlagan. Hozir esa maqsad bitta: piar, ommalashish, mashhur boʻlish...

– Dramaturgiya deganda, faqat teatr koʻz oldimizga keladi. Demak, boshqa sanʼat turlari uchun ham muhim ekan-da?

– Dramaturgiya va rejissura teatrga ham, kinoga ham, videoklipga ham, bayram tadbiriga ham, konsertga ham kerak. Bu professionalikka olib chiqadi ijodkorni yoki jamoani. Baʼzi qoʻshiqlarning klipini koʻrsangiz, soʻzi gʻaribroq boʻlsa ham taʼsirlanasiz. Baʼzi kinolarning maʼnosi chuqur boʻlsa ham, mazmun yetarlicha ochib berilmagani uchun qaytib koʻrmaysiz. Mana shu yerda farq bilinadi.

Chexov nima deydi, yaxshi yozilgan asar ijrochiga ham muhtoj emas, deydi. Uni oʻqib ham zavqlanasiz. Retro kinolarimizni nima uchun yuz qayta boʻlsa ham koʻraveramiz? Dramaturgiyasi bor-da.

Bugun xususiy telekanallarda berilayotgan telenovellalar, seriallarga koʻzim tushib qolsa, buni qaysi nodon vaqt ketkazib yozar ekan, deb qolaman. Yaqinda aktyor ukalarimdan soʻrasam, “Hech kim yozmaydi. Trenddagi mavzuni olib, xomaki syujet ishlanadi, diologlar suratga olish jarayonida aytib turiladi”, deb javob berdi. Aktyorlar ham suflorning ogʻzidan chiqqan soʻzni, shevami u, jargonmi u, qaramay

qaytaradi. Hayotda koʻrgan narsangizni boricha sahnaga olib chiqolmaysiz, uni badiiylashtirish kerak. Unga badiiy tasvir, badiiy boʻyoq berish kerak.

Hammasining zamirida dramaturgiyamizning kambagʻalligi, dramaturglar yetishmasligi yotibdi. Biz aholi orasidagi kambagʻallikni tan oldik, endi adabiyot va sanʼat sohasidagi kambagʻallikni, faqat moddiy emas, maʼnaviy yetishmovchiliklarni ham tan olaylik.

Nima uchun dramaturg yoʻq? Nima uchun yaxshi asar yoʻq? Chunki ijodkorlarning oʻzida ham kitobxonlik darajasi tushib ketgan. Mana, suhbatimiz avvalidagi gapga qaytdik.

– Koʻpincha “tomoshabin talab qilyapti”, “xalq shuni istayapti” deyiladi...

– Sanʼatkor tomoshabinning orqasidan ergashishi kerak emas. Aksincha, tomoshabin haqiqiy sanʼatning ortidan ergashishi kerak. Bu – qoida! Xalq xohlayotgani yoʻq, biz xalqqa shunaqa narsalar beryapmiz.

Masalan, siz hozir suv berdingiz, agar choy bersangiz ham ichardim. Chunki chanqaganman. Shunga oʻxshagan gap. Oʻzining saviyasizligi, dangasaligini oqlash uchun tomoshabinni ayblashadi. Lekin ijtimoiy tarmoqlarni, tok-shoularni kuzatsangiz, odamlar dod deyaapti mantiqsiz kontentlardan. Ular tomoshabin emasmi? Tomoshabin: “Mana shu narsani qilib bering”, deb buyurtma berayotgani yoʻq-ku.

Endi nima qilish kerak? Maʼlum auditoriya bachkanalikka oʻrganib qoldi. Ularning hammasini qayta tarbiyalab boʻlmaydi. Miyasidan ham chiqarib tashlay olmaysiz keraksiz gaplarni. Chingiz Aytmatov aytganidek, “Oshqozon miyadan koʻra aqli. Chunki oshqozon qayt qila oladi. Miya esa har qanday axlatni yutadi”.

Achinarlisi, auditoriyada oʻsha vaynerlar, shoumenlar, jamoalarga fanatlik paydo boʻldi. Demak, ularni taqirlash, mahsulotini yoʻqotish bilan hech narsaga erishib boʻlmaydi. Yaxshisi, ularga xatolarini tushuntirib, birgalikda bosqichma-bosqich saviyani koʻtarish kerak.

Yugurib ketayotgan yilqi uyurini qaytarish uchun qanday usul qoʻllanadi, bilasizmi? Agar uyur boshidagi ot birdan orqaga qaytsa, ortdan kelayotganlari tepkilab, yanchib ketadi. Shuning uchun, eng uqchur aygʻir katta doira yasab uyurni burib oladi. Shu usul xavfsiz va foydali. Biz ham shunday qilishimiz kerak. Milliy kontent, bolalar kontenti degan masalalar bejiz koʻtarilmadi. Bu masala kulgi sanʼatiga ham daxldor.

Bir hikmat bor: qanday kulganing tarbiyangni, nimaga kulganing saviyangni koʻrsatib beradi. Tilagim shuki, tomoshabin orasida tarbiyali va saviyali qatlamning safi kengayib boraversin.

– Ochigʻi, hazillar ichida yurgan odamning jiddiy mulohazalari biroz shoshirib qoʻydi. Samimiy suhbat uchun minnatdormiz.

Suhbatdosh:
Zarnigor IBROHIMOVA

TILBILIM

OGʻIR VA OGʻRIQ

Meni doim ogʻir va ogʻriq soʻzlarining uyqashligi oʻylantirib keladi. Shaki jihatdan oʻxshash bu soʻzlarning maʼno tomondan uygʻunligi yoʻqmikin? Bir qarashda ogʻriq soʻzining oʻzida ogʻirlik borday, ogʻirlik soʻzida esa ogʻriq borday tuyuladi. “Qutadgʻu bilig” mutolaasi vaqtida bu soʻzlarning qarindoshligi yanada sezilganday boʻladi.

Muhtaram olimimiz Qayum Karimov tuzgan “Qadimgi turkiy til lugʻati”da bu ikki soʻzga shunday izoh berilgan:

AGʻRUQ – yuk, ogʻirlik, vazminlikka ega boʻlgan narsa...

AGʻRUQLAN – ogʻirsinmoq, ogʻir olmoq.

AGʻRI – ogʻrimoq, kasallanmoq, xastalanmoq.

Mahmud Koshgʻariyda agʻruq agʻir iborasi ogʻir yuk maʼnosida kelgan.

Yusuf Xos Hojibda *irig* soʻzga *agʻrir kôhul* – dagʻal soʻzga koʻngil ogʻiriydi iborasi keladi.

“Turkiy tillar etimologik lugʻati”da ogʻir (agʻir) soʻzi bir tomonga ogʻish maʼnosidagi ogʻ (agʻ) feʼlidan paydo boʻlgan deyilgan. Yelkasidagi yukning ogʻiriligidan oʻng tomonga ogʻib borar-



di. Eʼtibor qilyapsizmi, tilimizdagi agʻnadi soʻzi ham ogʻdi soʻziga yaqin. Chunki agʻnayotgan odam bir tomonga ogʻib ketadi. Herman Vamberi ogʻriq soʻzining ildizini “ogʻir”, “yuk” maʼnosidagi ogʻir soʻziga taqaydi. Radlov esa ogʻriq soʻzini agʻri – agʻar, rangi oqardi maʼnosidagi oqar soʻzidan degan farazni aytadi. Menga Vamberi varianti qiziqroq tuyuldi.

Ogʻir soʻzi faqat ogʻirlik, yuk maʼnosida emas, qiyin, murakkab, qaygʻu-tashvish, vazmin kabi maʼnolarda ham qoʻllanadi. Baʼzan dard ham ogʻir soʻzida ifodalanadi. Masalan, unga ogʻir boʻldi degan gapni sharoiti ogʻirlashgan odamga ham, kasal yotgan odamga ham ishlatish mumkin.

Eshqobil SHUKUR

KUZATUV

Yana bir ish kuni yakunlandi. Metro bekati gavjum. Poyezd kelishi bilan uyiga, yotoqxonasiga, qoʻshimcha darsga va darsdan tashqari ishga oshiqayotgan yoshlar vagona selday yopirildi. Bizga oʻxshagan keksalar bunaqa izdihomga oʻzini ura olmaydi. Qayerga ham shoshardim, yaxshisi, yoʻlovchilar siyraklashishini kutaman.

“VA HAMMADAN QOLDI JOY”

Oʻrindiqqa oʻtirar ekanman, katta monitorga koʻzim tushdi. Unda jamoat transportlarida tik turib ketayotgan nuroniyalar, homilador va yosh onalar aks etgan kadrlar almashib turardi. Ekranning pastida yozuvlar koʻrindi: “Joy ber! Yelkamga botib ketdi bu yuk. Bu yukni manzilga yetkazishim kerak! Keksaydim, sochim oqardi, yelkam qavardi, tizzalarimga ogʻriq kirdi”.

Guruch kurmaksiz boʻlmaydi. Lekin yoshlarni yoppasiga ayblashdan ham yiroqman. Biri kun boʻyi tik oyoqda ishlagan, biri uzundan uzun maʼruzalarni tinglab chiqyapti, biri esa hali tun boʻyi ishlashi yo dars tayyorlashi kerak... Ikki oʻrtada bir muddat orom olishning qulay joyi – avtobus va metro oʻrindiqlari. Yana kadrda yozuvlarni oʻqishga oshiqaman:

“Bizbittavagonda, bitta avtobusda, yoʻq-yoʻq – bitta dunyoda ketyapmiz. Sen, ey, XXI asrning qiz-u oʻgʻloni! Ey, qoʻlidagi smartfonga mahliyo avlod! Ey, hayotimning davomchisi, kamolim kelajagi! Xizmat qilganlarga, keksalarga, hayotda senga joyini berib ketayotganlarga, andisha qilib tik turganlarga, avvalo, onalarga, boʻlgʻusi onalarga – Vatanning tirik timsollariga joy ber!”

Biz oriyatli xalqimiz. Kattani hurmat, kichikni izzat qilish qonimizga singgan. Xorij safarlarida boʻlgan doʻstlar va yaqinlarimdan koʻp eshitganman. U davlatlarda keksalarga hurmat koʻrsatish yot narsa ekan. Buni oʻzim ham kuzatganman. Hatto, Makka va Madinaday islom beshigi boʻlgan diyorlarda ham yoshlar keksalarga joy berishni xayoliga keltirmaydi. Bizda esa bu milliy qadriyat darajasiga



koʻtarilgan. Mana shu qadriyatni yoshlar orasida targʻib qilish, ularga oʻrgatish biz ziyolilarning vazifamiz. Metropolitan xodimlarining aytishicha, shu kabi roliklar va eslatmalar farzandlarimizga ijobiy taʼsir koʻrsat-yapti ekan.

Uzoq kutib, amallab vagona ham chiqib oldim. Tutqichdan ushlab tursam, oʻrta yoshlardagi singlimiz joy berdi. Buni koʻrgan norgʻul yigit oʻrnidan turdi. Ikkalasi ham keyingi bekatlarda tushib qoldi. Ammo kimdir kamayib qolgani sezilmadi. Bu holat taniqli bolalar shoiri Abdurahmon Akbarning satrlarini esimga soldi:

**Chiroyli edi bu hol,
Nafosatga edi boy.
Hamma yetdi manzilga
Va hammadan qoldi joy.**

Asror SULAYMONOV

Jadid

Muassislar:

OʻZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MAʼNAVIYAT
VA MAʼRIFAT MARKAZI

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI
QOʻLLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Masʼul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Akmal Jumamurodov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan
mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan roʻyxatga olingan.

Adadi – 18 760
Shundan:
Kirill yozuvida – 7 122
Lotin yozuvida – 11 638
Media kuzatuvchilar – 74 974
Buyurtma: G – 1040.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr koʻrsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy koʻchasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz